

YAQUBOVA D.B.

SHAXMATNING BOSHLANG'ICH ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YAQUBOVA D.B.

SHAXMATNING BOSHLANG'ICH
ASOSLARI
(o'quv-metodik qo'llanma)

Urganch – 2021

Yaqubova Dono Baxodirovna. Shaxmatning boshlang'ich asoslari. Mas'ul muharrir Ko'palov S.U. UrDU noshirlik bo'limi, 2021. 192 bet.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanma jismoniy madaniyat bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha na'munaviy o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda shaxmat taxtasi va donalarining yurishi, o'yin tartibi, hujum va himoya qilish, strategiya va taktika asoslari, debyut, mittelshipel, endshipeldagi vaziyatlar tahlili, musobaqa tashkil qilish va o'tkazish, glossariy, yosh shaxmatchilarni o'rgatish bo'yicha 1 yillik dastur, test savollari keltirilgan.

Uslubiy o'quv-metodik qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari va shaxmat sportiga qiziquvchi barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Yaqubova D.B.. Shaxmatning boshlang'ich asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. Mas'ul muharrir Ko'palov S.U. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Urganch davlat universiteti. Urganch, UrDU noshirlik bo'limi, 2021 yil. 192 bet.

| | | |
|-----------------|-----------------|---|
| Mas'ul muharrir | Ko'palov S.U | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |
| Taqrizchilar: | M.I.Masharipova | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |
| | I.Matchanov | O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi Xorazm viloyati hududiy bo'lini ijrochi direktori |

O'quv-metodik qo'llanma Urganch davlat universiteti o'quv – uslubiy kengashining 2021 yil __-_____dagi yig'ilishi (__-bayonnoma) qarori asosida nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o‘z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma’naviy kamoloti bilan o‘lchanadi. Hozirda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo‘nalishda – sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya’ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy ta’bir bilan aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakllantirish XXI asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

Insonning intellektual imkoniyatlarini oshiruvchi vosita sifatida qadim davrlardan buyon o‘ynalib kelinayotgan sport turlaridan biri bo‘lgan – shaxmat o‘yini hozirgi kunda eng mashhur o‘yinlardan biriga aylangan, sport turi sifatida qabul qilingan; dunyo bo‘ylab millionlab kishilar bu o‘yinni o‘ynashadi. Shaxmat aqliy gimnastika sifatida ham ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tamonidan 2018 yil 9 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021 yil 14 yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommalashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq shaxmat sportini yurtimizda yanada kengroq rivojlantirish, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga shaxmatga o‘rgatish, iqtidorli yoshlarni saralab olish orqali yurtimizda shaxmatni rivojlantirish va FIDE reytingida yuqori o‘ntalikdan joy olishga doir vazifalar belgilangan bo‘lib, buning uchun moddiy bazani, o‘quv-mashg‘ulot ishlarini tashkil qilishga doir ko‘rsatmalar berilgan.

Ushbu o‘quv-metodik qo‘llanmada shaxmat o‘yini to‘g‘risida umuman tushunchaga ega bo‘lmagan o‘quvchilar uchun shaxmat o‘yinini o‘rganish imkonini beradigan, shaxmat taxtasi va donalarining joylashishi va yurishlaridan tortib, turli debyut variantlari, enshipildagi o‘yin qoidalari, kombinatsiyalar va o‘yinlarni taxlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, o'quv-metodik qo'llanmada shaxmatning paydo bo'lishi, O'zbekistonda rivojlanishi, shaxmat bo'yicha glassariy va o'z-o'zini nazorat qilish uchun testlar, shuningdek, yosh shaxmatchilarni tayyorlash metodikasi tarkibiga kiruvchi na'muna sifatidagi bir yillik o'quv dasturi keltirilgan.

Shaxmat o'yini o'quv-metodik qo'llanmasidan foydalanish to'g'risida ba'zi narsalarni aytib o'tish kerak. Ushbu o'quv-metodik qo'llanma shu tipdagi boshqa adabiyotlar singari, ko'rsatmali quoldan foydalanishni talab qiladi. Shaxmat taxtasi va donalari bo'lmasa, o'yinni o'rganish mumkin emas. Agar yangi o'rganuvchilar o'yin qoidalari va ayrim donalarining yurishini osongina bilib olsalar, qo'llanmaning keyingi boblarini yahshi o'zlashtirish uchun olgan bilimlarini takrorlab va tekshirib turishlari lozim. Ba'zan yangi o'rganuvchi o'zaro baxslarda shaxmat o'ynab, kuch sinashib tursa foyda beradi.

Qo'llanmada qiyin pozitsiyalar, masalan, ot va fil bilan mot qilish singari pozitsiyalar uchraydi. Yangi o'rganuvchi shaxmatchilning bunday pozitsiyalarni o'zlashtirishi ancha qiyin. U bunday misollarni belgilab qo'yishi va malakasi ortgandan keyin ularni ya'na ko'rib chiqishi kerak; shunday qilganda ilgari qiyin tuyulgan va tushunilmagan misollar ham osongina o'zlashtiriladi. Yangi o'rganuvchi shaxmatchi o'yinni o'rganishnigina emas, balki yahshi o'yinchi bo'lishni ham istaydi. Buning uchun u, amaliy o'yinlarga kirishishi bilanoq alohida daftar qilib olishi va musobaqalarda o'ynagan hamma o'yinlarini shu daftarga yozib borishi zarur. Keyin u har bir o'yinni qaytadan o'ynab ko'rishi va yo'l qo'ygan xatolarini darslikka qarab topib olishi lozim. Debyut variantlarini o'rganishda bunday analiz katta foyda beradi, variantlar miyaga yahshi singadi va uzoq vaqtgacha esda qoladi.

Yangi o'rganuvchi shaxmatchi bu qo'llanmani boshidan boshlab qunt bilan o'rganib borsa, u uchinchi va hatto ikkinchi razryadli o'yinchidek usta shaxmatchi bo'lib olishi mumkin.

Yangi o'rganuvchi shaxmatchi dastlabki muvaffaqiyatsizlikdan so'ng umidsizlanmasligi, balki o'yindagi xatolariga e'tibor berishi va ularni yahshilab tekshirib chiqishi lozim, shunda u o'sadi va muvaffaqiyatga erishadi.

SHAXMAT O'YININING PAYDO BO'LISHI VA JAHONDA RIVOJLANISHI

Shaxmat o'yinining qayerdan kelib chiqqanligi to'g'risida ko'pgina afsonalar va har xil taxminlar ko'p bo'lsada, lekin aniq faktlar hozircha juda kam. Shaxmat o'yini eramizdan 600 yillar oldin Shimoliy Hindistonda vujudga kelgan. O'sha davrda harbiylar jamiyatda obro' – e'tiborga ega bo'lishgan. Harbiy aslzodalar stolda biror – bir o'yinni birga o'ynab ko'rish taklifini duelga chaqirish bilan teng ko'rishar edi. Aynan mana shuning uchun shaxmat yoki uning ajdodlaridan bo'lgan shu kabi o'yinni o'ynab ko'rishga bo'lgan taklif, jangga kirish qarori bilan tengdir.

Shaxmat o'yini “ashtapada” deb nomlangan sodda bir o'yindan tarqalgan ham bo'lishi mumkin. Bu kabi sodda, stolda o'ynaladigan o'yinlarning zamonaviy shaxmat o'yiniga qanday qilib aylanganini aniqlash biroz mushkul, albatta. Ammo shunisi ma'lumki, ashtapada o'yini stolda o'ynaladigan yangi “chaturang”

o'yinining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bu o'yinni hindistonlik bir donishmand yaratgan deyishadi. O'yin qadimgi hind qo'shinlarining 4 ta asosiy kuchga bo'linishini o'zida aks ettirgan: piyoda, otliq, fil va ruh. Ushbu o'yinda to'rtta qo'shin bo'lib, ularning har birini o'zining



Chaturanga

rojasi (shohi) boshqarib, g'alaba qozonish uchun kurashadi. O'yinda uncha qat'iy bo'lmagan bitim bilan birlashtirilgan, bir – biriga qarshi ikki o'yinchi boshqariladi. Chaturang o'yini uchun mo'ljallangan taxta, hozirgi zamonaviy shaxmat o'yini taxtasi singari 64 ta xonadan iborat bo'lgan. Chaturang o'yinini to'rtta kishi o'ynashidan tashqari, hozirgi zamonaviy shaxmatdan ajratib turadigan asosiy jihati shunda bo'lganki, unda har bir ishtirokchi keying qadamni ham tanlashini aniqlash uchun suyak (tosh)lar tashlangan.

Vaqt o'tib chaturang shunday yo'l bilan o'zgarib bordiki, unda to'rtta kishi emas, balki ikki kishi o'ynay boshladi. Biroq yagona maqsad – raqib davlat hukmdorini maxv etish g'oyasi o'zgarmay shu holicha qoldi. Ammo o'sha davrda Hindistonda qimor o'yinlarini taqiqlab qo'yishdi. Natijada ushbu o'yinda suyak (tosh) tashlash yo'qoldi. O'sha davrdagi stolda o'ynaladigan o'yinlarda haqiqiy hayotni ifodalashga urinishardi: o'yindagi g'alaba yoki mag'lubiyat o'yin ishtirokchisining omadiga bog'liq edi. Suyaklarni tashlab, ishtirokchilar taqdirga butkul ishonardilar. O'yin toshlari olib qo'yilgandan so'ng o'yindagi g'alaba yoki mag'lubiyat, omad kelishi taqdirga bog'liq bo'lmay qoldi. Shu vaqtdan boshlab inson o'z taqdirining egasiga aylana boshladi. Omadning kelishi o'yinda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, endilikda o'yinning muvaffaqiyatini ular emas, aksincha o'yinchining mahorati va tajribasi belgilaydigan bo'ldi.

Chaturang o'yini o'z boshidan o'tkazgan boshqa o'zgarishlar qatoriga, farzin sipohining qo'shilishi shoh kuchining kamaytirilishi bo'ldi. Natijada yangilangan o'yinning nomini – shatranj deb atay boshlashdi. Ushbu nomdagi o'yin haqidagi dastlabki ma'lumotlarni biz taxminan eramizdan oldingi 600 yillarda forsiy tilde yozilgan kitobda uchratamiz.

Shundan so'ng shaxmat o'yini Hindistondan butun dunyoga tarqala boshladi. Keying olti asrda ular Fors (hozirgi nomi Eron)da tarqala boshladi, u yerda bu o'yin “shatrang” (arablar Forsni bosib olganlaridan so'ng uning nomi – shatranj deb atala boshladi) nomi bilan mashhur bo'ldi.

IX – X asrlarda O'rta Osiyoda shatranj o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi va Abu Hofiz, Jobir, Abun Naim, Robrob, Al Adliy, Ar Roziy, Mavarday, As Suliylar singari ko'pgina ajoyib shatranjchilar yetishib chiqadi.

XII asrda yashagan Abulfath va XIV – XV asrlarda Temur saroyida yashagan Ali Shatranjiy zo'r amaliy o'yinchi bo'lish bilan birga, zo'r shatranj nazariyachisi ham bo'lgan.

O'sha davrning arabcha qo'lyozmalarida debyutlar va o'yin ohirlarining tahlili berilgan bo'lib, asosan, masalalar to'plami yoki, aniqroq qilib aytganda, “mansuba”lardan iborat edi.

Shatranj o'yinidagi sur'atning sustligi jangning shaxmatdagidek tez boshlanib ketishiga xalaqit berardi, chunki piyodalar hamma vaqt bir xonagina yura olar, farzin va fillar esa "kalta" yurishlar qilar edi. Shatranj o'yinida bo'ladigan asosiy janglarni tezlashtirish maqsadida, keyinchalik bir necha vaziyatlar – ta'biyalar o'ylab chiqarildi va o'yin shu vaziyatlardan boshlanadigan bo'ldi. Ta'biyalarda piyodalar va sipoxlarning ko'pchiligi taxtaning o'rtasiga yaqinroq terilgan bo'lar edi.

Yangi vaziyatlarni vujudga keltirish uchun intilish ayniqsa ajoyib mansubalar yaratishda rivoj topdi. O'rta Osiyo mansubalari asosan, yutuqli va durang bo'ladigan xillarga bo'linadi. Bularning yutuqlilari hozirgi shaxmat masalalarini eslatadi, chunki ularda kurash shohni mot qilish bilan yakunlanadi. Samarqandlik Ali Shatranjiy tuzgan mansubalar o'zining shakli va mazmunining mosligi, nafisligi bilan o'rta asrlar kompozitsiyasida alohida o'rin tutadi.

O'rta dengiz bo'yidagi bir necha mamlakatlarni arablar bosib olgandan so'ng, VIII – IX asrlardan Italiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda ham shatranj o'ynala boshlandi. O'sha davrlarda yaratilgan ko'pgina ajoyib mansubalar bizgacha yetib kelgan, Abul Abning IX asrga taalluqli qo'lyozmasi ham buni isbotlaydi.

Arablar shaxmat yozuvini joriy etgani uchun shaxmat o'yinlari matniga oid qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Abulfath Ahmad ibn Sijziy "Shatranj kitobi"da 819 yilda Xurosonda o'tkazilgan birinchi shaxmat musobaqasi va unda g'olib chiqqan o'rta osiyolik mashhur shatranjchi Abu Bakr as-Suliy haqida yozgan. As-Suliy ko'plab shaxmat voqealariga qahramon bo'lib kirgan Abulfaroj Laylojga ustozlik qilgan.

Shaxmat XI asrdan boshlab Yevropada jadal rivojlandi. XV asrda shaxmat qoidalariga o'zgarishlar kiritildi. 1512 yilda Rimda Damianoning "Bu kitob shaxmat o'ynashni o'rgatadi" to'plami bosildi va u Yevropa tillariga tarjima qilindi. 1575 yilda Madridda Ispaniya va Italiya shaxmatchilari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi. XVII asrda Joakkino Greko (Italiya), XVIII asrda Danikan (Fransua Andre), Filidor (Fransiya), XIX asrda Govard Staunton (Angliya), Adolf Andersen,

Iogannes Sukertort (Germaniya), Pol Morfi, Lui Paulsen (AQSh), Ignats Kolish, Vilgelm Steynits (Avstriya— Vengriya), Aleksandr Petrov, Mixail Chigorin (Rossiya) kabi shaxmat ustalari bu o‘yinning rivojiga katta hissa qo‘shishdi. 1851 yilda Londonda 1-xalqaro musobaqa uyushtirildi. Unda Andersen g‘alaba qozondi. 1886 yildan shaxsiy jahon chempionati o‘tkazilishi shaxmatni yanada ommalashtirdi. 1924 yilda Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tuzildi. 1987 yilda tuzilgan Grossmeysterlar assotsiatsiyasi (keyin Jahon shaxmat kengashi, deb nomlandi) mustaqil ravishda shaxmat bo‘yicha bir qancha musobaqa, jahon kubogi va chempionati tashkil etdi. 2000 yilda Vladimir Kramnik va Garri Kasparov o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqada Kramnik g‘alaba qozondi va jahon chempioni, deb e‘lon qilindi. FIDE shaxmatdagi bo‘linishga barham berish maqsadida mutlaq jahon chempionini aniqlash uchun birlashtiruvchi musobaqa belgiladi.

O‘ZBEKISTONDA SHAXMATNING RIVOJLANISHI

O‘zbekiston zaminida shaxmat chuqur ildiz otganini tasdiqlovchi manbalar mavjud. 1972 yilda Dalvarzintepa (Surxondaryo)da olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida Kushon davri (I – II asrlar)ga oid shaxmat donalari, 1977 yilda Afrosiyob (Samarqand)da o‘tkazilgan tadqiqotlar chog‘ida VII – VIII asrlarga taalluqli 7 ta shaxmat donasi topilgan. IX asrda yashagan arab olimi va shatranjchisi al Adliyning yozishicha, shatranjdagi inson tafakkurini cheklagan shashxoldagi xollarning tushishiga qarab yurish (shashxol)ning bekor qilinishi va bu o‘yinning rivojlanishida O‘rta Osiyo xalqlari muhim rol o‘ynagan. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn”, Alisher Navoiyning “Majolis un nabois”, “Lison uttayr”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va boshqalar tarixiy asarlarda shaxmat (shatranj)ga oid qimmatli ma’lumotlar bor. Amir Temur davrida kuchli shatranjchilar Samarqandda to‘planishgan. Tabrizlik Ali ash Shatranjiy (Oloviddin at-Tabriziy) Samarqandda o‘tkazilgan musobaqalarda g‘olib chiqqan. Shatranj haqida kitob yozib, unga o‘zining va XIV asrgacha O‘rta Osiyoda yashagan

ko'plab oliya (grossmeyster)larning mansubalarini kiritgan. Sohibqironning o'zi bilan ham shatranj o'ynab turgan.

XX asrning 20 – yillaridan O'zbekistonda shahmatning zamonaviy qoidalari keng targ'ib etilishi bu sport turining rivojlanishiga turtki berdi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda shaxmat to'garaklari ochildi. Azmiddin Xo'jayev, Sergey Freyman, Po'lat Saidxonov, Zokir Xo'jayev kabilar shahmatni targ'ib etishda jonkuyarlik ko'rsatishdi. 1930 yildan erkaklar, 1935 yildan ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionatlari o'tkazila boshlagan (Aleksandr Grushevskiy va Larisa Pinchuk eng ko'p - 8 martadan chempion bo'lishgan). Turli davrlarda Fyodor Duz-Xotimirskiy, Salo Flor, Tigran Petrosyan, Paul Keres, Aleksandr Kotov, Mark Taymanov, Viktor Korchnoy, Anatoliy Karpov kabi taniqli grossmeysterlarning O'zbekistonga kelib, ma'ruzalar o'qishi, bir yo'la o'yin (seans)lar o'tkazishi, musobaqalarda qatnashishi mamlakatimiz shaxmati rivojiga samarali ta'sir etdi. XX asrning 50-yillaridan boshlab Mamajon Muhitdinov, Ulug'bek Elbekov, Sergey Pinchuk, Roman Kim, Alla Mkrtichan kabi shaxmat jonkuyarlarining yangi avlodi voyaga yetdi. Respublika shaxmat klubi foydalanishga topshirildi, turli toifadagi musobaqalar o'tkazila boshlandi, gazeta va jurnallarda shaxmat ruknlari, O'zbekiston televideniyesida shaxmat ko'rsatuvi ochildi, shaxmatga oid kitoblarni nashr etish yo'lga qo'yildi. Isaak Birbrager, Yefim Ruxlis kabi shaxmat kompozitorlari turli tanlovlarda g'olib chiqishdi. Georgiy Borisenkoga sirtqi shaxmat bo'yicha xalqaro grossmeyster unvoni berildi. Georgiy A'zamov esa O'zbekistondan yetishib chiqqan 1-xalqaro grossmeyster bo'ldi (1984).

XX asrning 90-yillaridan O'zbekiston shaxmatida yuksalish boshlandi. Erkaklar terma jamoasi jahon shaxmat olimpiadasida 2-o'rinni egalladi (1992), Osiyo chempionatida g'alaba qozondi (1999). Ibrohim Hamroqulov o'smirlar o'rtasida jahon birinchiligida g'olib chiqdi (1998). Rustam Qosimjonov Osiyoning birinchi (1998), jahonning 17-chempioni (2004) bo'ldi.

FIDE tasnifi bo'yicha jahon chempionlari V.Steynits, Ye.Lasker, X.R.Kapablanka, A.Alyoxin, M.Eyve, M.Botvinnik, V.Smislov, M.Tal, T.Petrosyan, B.Spasskiy, R.Fisher, A.Karpov, G.Kasparov, A.Xalifman, V.Anand, R. Ponomaryov, R. Qosimjonov nufuzli musobaqalarda yuqori natijalar ko'rsatgani uchun FIDE quyidagi shaxmatchilarimizga xalqaro grossmeyster unvonini berdi: Valeriy Loginov, Aleksandr Nenashev, Grigoriy Serper, Sergey Zagrebelniy, Saydali Yo'ldoshev, Aleksey Barsov, Mixail Saltayev, Rustam Qosimjonov, Rena Mamedova, Shuhrat Safin, Marat Jumayev, Dmitriy Qayumov, Timur Gareyev. Bir necha shaxmatchi va murabbiylar O'zbekiston Respublikasining faxriy unvoni va orden-medallari bilan mukofotlanishdi. Mamlakatda bolalar va yoshlar o'rtasida ham shaxmatni rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti. Shaxmat "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalari dasturiga kiritilgan. O'zbekistonlik yosh shaxmatchilar bolalar-o'smirlar o'rtasida o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egallab kelishyapti.

Yurtimiz shaxmatchilari tamonidan xalqaro miqyosidagi musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda, jumladan, 2018 yilda Turkiyaning Ko'nyo shahrida 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasida jahon shaxmat olimpiadasi O'zbekiston terma jamoasining yorqin g'alabasi bilan tugadi. Grossmeyster Saidali Yo'ldoshev murabbiyligida Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya singari bir qator shaxmat rivojlangan davlatlar terma jamoalarini mag'lub etgan yoshlarimiz olimpiada chempioni bo'lishdi. Ta'kidlash joizki, bu mamlakatimiz shaxmati tarixidagi ilk olimpiada oltin medalidir!

Terma jamoa a'zolari – Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Javohir Sindorov, Shamsiddin Vohidov 5-6 yildan buyon xalqaro musobaqalarda ketma-ket muvaffaqiyatlari bilan nafaqat yurtimiz, balki xorijlik mutaxassislarining ham e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ko'pchilik mutaxassisu muxlislar ularga o'zbek shaxmatining oltin avlodi deya baho bermoqda. Bu bejiz emas.

2017 yili Nodirbek Abdusattorov jahonning eng yosh grossmeysteri nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, Javohir Sindorov ushbu rekordni yangiladi. O'shanda Nodirbek Abdusattorov 13 yoshu 1 oyligu 11 kunlik bo'lganida xalqaro

grossmeyster darajasiga erishib, shaxmat tarixida rossiyalik Sergey Karyakindan so'ng ikkinchi natijani qayd etgan edi. Shu yil yozda hindistonlik Rameshbabu Pragnanandha 12 yosh 10 oylik va 13 kunlik bo'lganida shunday unvonga erishib, Nodirbekni 3-o'ringa tushirib qo'ygan edi. Biroz o'tib esa eng yosh payti xalqaro grossmeyster unvoniga ega bo'lganlar ro'yxatida 2-o'ringa yana O'zbekiston vakili ko'tarildi. Iste'dodli shaxmatchimiz Javohir Sindorov 12 yoshu 10 oylik bo'lganidan 7 kun o'tib, ya'ni 15 oktyabr kuni uchinchi bor xalqaro grossmeyster normasini bajardi!

2017 yili Nodirbek Yoqubboyev Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Mixail Chigorin xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda 300 nafar shaxmatchi (20 nafari xalqaro grossmeyster) ishtirok etgan blis musobaqasida 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Shamsiddin Vohidov – o'zbek shaxmati tarixida jahon chempioni bo'lgan 4 shaxmatchidan biridir (Ibrohim Hamroqulov – 1998 yil, 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasida; Rustam Qosimjonov – 2004 yil, olimpiya tartibida o'tkazilgan jahon chempionatida; Nodirbek Abdusattorov – 2012 yil, 8 yoshgacha bolalar o'rtasida; Shamsiddin Vohidov – 2015 yil, 14 yoshgacha o'smirlar o'rtasida).


Terma jamoamizning yana bir vakili – Sitara Saparova ham bir necha marotaba O'zbekiston va Osiyo chempioni bo'lgan iqtidorli shaxmatchi xisoblanadi.

SHAXMAT TAXTASI VA ALIFBOSI


Shaxmat o'yinida ikki tarafning qo'shinlari, ya'ni "oqlar" bilan "qoralar" jang qiladi. Bu ikki taraf (ikki "raqib") o'rtasidagi kurash "shaxmat o'yini" ("partiyasi") deb ataladi.

Shaxmat taxtasi bir – biriga baravar bo'lgan 64 kvadratdan iborat, bu kvadratlar taxtaning har qaysi tamonida 8 tadan bo'ladi. Taxtaning bir kvadrati oqqa va yonidagi kvadrat qoraga bo'yalgan bo'ladi va ular oq "xona" va qora "xona" deb yuritiladi.


Taxta ikki o'ynovchi o'rtasida shunday qo'yiladiki, har kimning o'ng tamonidagi burchakda oq xona bo'ladi.




Taxtadagi sakkizta vertikal tushirilgan chiziqni (xonalarni) shaxmat tilidagi: a, b, c, d, e, f, g, h harflari bilan belgilab chiqamiz .



Shaxmat taxtasida shuningdek, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 raqamlari bilan belgilangan 8 ta gorizontal joylashgan xonalar mavjud.



Taxtada yonlanma chiziq bo'ylab kesib o'tadigan bir xil rangdagi xonalar qatori mavjud bo'lib, ular diagonal chiziqlar deyiladi.




O'ynovchilarning kuchlari baravar: har qaysi tamonda 16 tadan dona bo'ladi.

Har bir shaxmat donasining o'z nomi va matbuotda o'z belgisi bor.

| Oqlar | Qoralar | Nomi | O'zbekcha | Ruscha qisqartmasi | Inglizcha qisqartmasi |
|---|---|--------|-------------------------|----------------------|--------------------------------|
|  |  | Piyoda | p yoki nomsiz | nomsiz | P yoki nomsiz (pawn) |
|  |  | Ruh | R | Л (ладя) | R (rook) |
|  |  | Fil | F | С (слон) | B (bishop) |
|  |  | Ot | O | К (кон) | N (knight) |
|  |  | Farzin | Fr | Ф (ферз) | Q (queen) |
|  |  | Shoh | Sh | Кр (карол) | K (king) |

O'yinni boshlashdan oldin donalar 1-rasmda ko'rsatilganidek bir biriga qarama – qarshi qilib teriladi (taxta va donalar ko'rsatilgan bunday rasmga “vaziyat” deyiladi):

1-vaziyat



Burchakdagi xonalarga ruhlar, so'ngra otlar va fillar, o'rtaga esa

shohlar bilan farzin teriladi. Shunda oq farzin doim oq xonaga va qora farzin–qora xonaga, shohlar esa aksincha, oq shoh qora honaga va qora shoh – oq xonaga qo'yiladi.

O'yin boshida shohlar turgan tamoni “shoh tamoni” va farzinlar turgan tamoni “farzin tamoni” deyiladi.

Taxtada donalar ma'lum qoidaga muvofiq yuradi, o'yindan maqsad esa – dushamning shohini halok qilish, ya'ni “mot” qilishdir.

Taxtadagi har bir xona o'z garizantal yo'lidagi yo'lidagi raqam

bilan va o'sha vertikal yo'ldagi harf bilan ataladi (2-vaziyat).

Donalarning yuqorida aytilganidek qisqacha yozilishi bilan birga honalarning bunday atalishi "shaxmat alifbesi (notatsiyasi)" deb aytiladi va bu alifbe yordami bilan taxtdagi har qanday ahvolni, ya'ni pozitsiyani yozib olish mumkin bo'ladi.

2-vaziyat

| | | | | | | | | |
|---|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 8 | a8 | b8 | c8 | d8 | e8 | f8 | g8 | h8 |
| 7 | a7 | b7 | c7 | d7 | e7 | f7 | g7 | h7 |
| 6 | a6 | b6 | c6 | d6 | e6 | f6 | g6 | h6 |
| 5 | a5 | b5 | c5 | d5 | e5 | f5 | g5 | h5 |
| 4 | a4 | b4 | c4 | d4 | e4 | f4 | g4 | h4 |
| 3 | a3 | b3 | c3 | d3 | e3 | f3 | g3 | h3 |
| 2 | a2 | b2 | c2 | d2 | e2 | f2 | g2 | h2 |
| 1 | a1 | b1 | c1 | d1 | e1 | f1 | g1 | h1 |
| | a | b | c | d | e | f | g | h |

Masalan, donalarning dastlabki turishi quyidagicha yoziladi:

Oqlar – Kpe1, Φd1, Λa1 va Jlh1, Ce1 va Cf1, Kb1 va Kg1, piyodalar a2, b2, c2, d2, e2, f2, g2, h2.

Qoralar – Kpe8, Φd8, Λa8 va Jlh8, Ce8 va Cf8, Kb8 va Kg8, piyodalar a7, b7, c7, d7, e7, f7, g7, h7.

Avvalo eng asosiy donalar yoziladi, so'ngra o'z kuchi va ahamiyatiga qarab qolganlari yoziladi.

Taxtaning xonalari doimo oqlar tomonidan hisoblab yoziladi. Masalan, 1-qora piyodalar 7-gorizantal yo'lda turadi. Bu yo'l qoralar tomonidan qaraganda 2-yo'l bo'lsa ham, lekin baribir 7-yo'l deb hisoblanadi. Qoralar o'zining birinchi gorizantal yo'lini 8-yo'l deb yuritadi, ya'ni oqlar tomonidan hisoblaydi.

Shaxmat taxtasining d4, d5, e4, e5 xonalari markaziy xonalar hisoblanadi.

| | | | | | | | | |
|---|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 8 | a8 | b8 | c8 | d8 | e8 | f8 | g8 | h8 |
| 7 | a7 | b7 | c7 | d7 | e7 | f7 | g7 | h7 |
| 6 | a6 | b6 | c6 | d6 | e6 | f6 | g6 | h6 |
| 5 | a5 | b5 | c5 | d5 | e5 | f5 | g5 | h5 |
| 4 | a4 | b4 | c4 | d4 | e4 | f4 | g4 | h4 |
| 3 | a3 | b3 | c3 | d3 | e3 | f3 | g3 | h3 |
| 2 | a2 | b2 | c2 | d2 | e2 | f2 | g2 | h2 |
| 1 | a1 | b1 | c1 | d1 | e1 | f1 | g1 | h1 |
| | a | b | c | d | e | f | g | h |

DONALARNING YURISHI

Shaxmat o'yini taxtadagi donalarni yurish, ya'ni ularni bir xonadan ikkinchisiga olib qo'yish bilan o'ynaladi.

Raqiblar navbatma-navbat yuradilar. O'yinni doim oq tamon boshlaydi. Oqlarning birinchi yurishidan keyin qoralar o'zining birinchi yurishini qiladi, so'ngra oqlar o'zining ikkinchi yurishini qiladi va hakazo.


Har bir yurishda faqat bir donani surish mumkin.¹ O'z donasi turgan honaga boshqa donani qo'yish mumkin emas. Agarda yurish o'yin qoidasiga to'g'ri kelsa, donani raqib donasi turgan honaga qo'yish mumkin bo'ladi, lekin bu holda raqibning bu donasini "urib olish" kerak, ya'ni uni taxtadan butunlay olib tashlash kerak (o'z donasini urib olish mumkin emas albatta).

¹ Bu qoidaga faqat "rakirovka" kirmaydi. Bu bilan – biz keyinroq tanishamiz.

Donalarning qaysi xonaga yura olishi quyidagi (3-8) vaziyatlarda ko'rsatilgan.

Ruh garizantal va vertikal yo'llarni har tamonga qarab, istagan honagacha yura oladi. Masalan, 3-vaziyatda ruh yura oladigan vertikal va garizantal 14 ta xonaning istagan biriga yurishi mumkin.

3-vaziyat




Ruhning yurishi

Fil faqat diagonal (qiya) yo'llardan har tamonga, istagan xonaga yura oladi (4-vaziyat). Fil eng ko'p deganda (markazda, ya'ni e4, d4, e5, d5) xonalarida turganda 13 xonaga yurishi mumkin. Agarda fil b7 xonasida bo'lsa 9 xonaga, a1 honasida turgan bo'lsa 7 xonaga yura oladi.

Demak, filning harakatchanligi ruhga qaraganda kamroq, chunki ruh bo'sh xonada doim 14 xonaga yura oladi. Shu bilan birga, fil faqat oq yoki qora xonalardagina yura oladi (shuning uchun ham oq xonalardan yuradigan fil "oq fil" va qora xonalardan yuradigan fil "qora fil" deb ataladi), holbuki ruh oq xonalarga ham qora xonalarga ham yurishi mumkin. Buning hammasi ruhning fildan kuchliroq ekanligini ko'rsatadi.


4-vaziyat



Filning yurishi

Farzin – donalarning eng kuchlisidir. Farzin ruh yo'ldan ham, fil yo'ldan ham yura oladi va juda harakatchan bo'lgani, oq xonalardan ham, qora xonalardan ham yura olishi tufayli ruh bilan filning ikkovini birga olganda ham ulardan kuchliroqdir. Bo'sh taxtaning markazida turgan farzin 27 xonaga yura oladi (5-vaziyat).


5-vaziyat



Farzin yurishi

Ot boshqa donalarga qaraganda g'alati yurish qiladi. U o'zi turgan joydan istagan tomonga bir xona qoldirib, boshqa rangdagi xonaga tushadi (6-vaziyat).

6-vaziyat




Otning yurishi

Taxtaning o'rtarog'ida turgan ot ko'p deganda 8 xonaga yura oladi. Agar ot a8 xonasida bo'lsa atigi ikkita xonaga – b6 va c7 xonalariга yura oladi, xalos. Otning boshqa donalardan farqi shuki, u o'z donalari ustidan ham, raqib donalari ustidan ham sakrab o'ta oladi.

Masalan, 9-vaziyatdagi pozitsiyada oqlarning c5 xonasidagi oti b7 xonasiga yura oladi. Otning eng ajoyib xususiyati shundaki, u har bir yurishdan boshqa rangdagi xonaga yuradi. Shu tufayli ot taxtaning hamma xonalariga yura oladi.

Shoh har tamonga ya'ni to'g'ri yo'ldan (gorizontal, vertikal tamonlarga) ham, diagonal yo'llardan ham faqat bir xonaga yura oladi (7-vaziyat).

7-vaziyat




Shohning yurishi

Bo'sh xonadagi shoh eng ko'pi bilan 8 xonaga yura oladi; taxtaning chekkasida 5 xonaga va burchagida 3 xonaga yura oladi. Shohning xususiyati shundan iboratki, uni zarb ostidagi xonaga qo'yish, ya'ni raqib donasi ura oladigan xonaga yurish mumkin emas. Masalan, 8-vaziyatdagi ahvolda qora shoh faqatgina c7 xonasiga yura oladi.

Qoralar c5 xonasidagi oq otni shoh bilan urolmaydi, chunki bu xona oq shohning zarbasi ostida turibdi. Bu pozitsiyada oq shohning yura oladigan ikkita yo'li bor: u a4 va c3 xonalariga yura oladi.

8-vaziyat




Taxtada donalar ko'p bo'lsa, ularning harakatchanligi, ya'ni yurish imkoniyatlari kamayadi. Masalan, 8-vaziyatdagi oq ruhning yuradigan xonasi 14 emas, balki 9 tagina (shundan 7 tasi bo'sh xona va 2 tasi – e6 va d1 – qora donalar turgan xona).

Piyoda hamma donadan kuchsizdir, chunki u faqat vertikal yo'ldan oldinga qarab birgina xona yura oladi. Lekin agar piyoda hali yurimagan bo'lsa, ya'ni ikkinchi (qoralarning yettinchi) gorizontaldan siljimagan bo'lsa, uni birdaniga ikki xona, ya'ni bir yo'la to'rtinchi (qoralar beshinchi) gorizontalgacha

(bo'sh xonadan oshirib) yurish mumkin (9-vaziyat). Masalan, 8-vaziyatdagi g2 piyodasini g3 xonasiga ham, g4 xonasiga ham surish mumkin. Bu vaziyatdagi boshqa piyodalar esa birdaniga ikki xona surila olmaydi (lekin b2 va g7 xonalaridagi piyodalarning oldidagi xonalar bo'sh shu piyodalar ham ikki xona yurishi mumkin).

9-vaziyat



Piyodaning yurishi

Piyodaning boshqa donalardan farqi shuki, u oldinga qarab yuradi, ammo diagonal yo'lining yondosh xonasidagi donanigina ura oladi. Masalan (8-vaziyatga qaralsin), oqlarning h5 dagi piyodasi agar hohlasa qoralarning g6 dagi piyodasini ura oladi yoki agar yurish qoralardan bo'lsa, ular g6 dagi piyoda bilan h5 dagi piyodasini urishi mumkin.


Bu pozitsiyada piyodalarning boshqacha urish imkoniyati yo'q.

O'sha pozitsiyadagi f4 va g2 piyodalarning turishi qiziq. Qoralarning f4 piyodasi oqlarning e3 va g3 xonasi xavf solib turibdi. Boshqacha qilib aytganda, agar g2 dagi piyoda g3 xonasiga yursa, u holda bu piyodani f4 dagi piyoda ura oladi. Bordi-yu, zarba ostidagi g3 xonadan sakrab, g2 piyodasi birdaniga g4 ga yursa nima bo'ladi? bunday holda f4 dagi piyoda urish huquqidan mahrum bo'ladimi? Ammo o'yin qoidasiga muvofiq, f4 dagi piyoda bu holda ham raqib piyodasini ura oladi, lekin shunda u g2 piyodasi go'yo bir xonaga yurgandek g3 xonasiga qo'yiladi. Bunga "yo'lda" urish deyiladi. "Yo'lda" urushni navbatdagi yurishdagina qilish mumkin, aks holda bu huquqdan mahrum bo'linadi.

Piyoda gorizontaldagi ohirgi xonaga (oqlar sakkizinchi, qoralar birinchi gorizontalgaga) borib yetganidan keyin darxol taxtadan olib qo'yiladi va uning o'rniga, o'ynovchining hohishi bilan, shu rangdagi istagan boshqa dona qo'yiladi (lekin shoh qo'yilmaydi).

Bunday piyoda o'rniga ikkinchi (hattoki uchinchi va hakazo) farzin, ruh yoki sipoh (fil yoki ot)² qo'yish mumkin. Odatda eng kuchli dona bo'lgan farzinni qo'yadilar. Piyodaning bu xil boshqa donaga "aylanishi" bir yurish hisoblanadi.

10-vaziyat



10-vaziyatda qoralar c2 piyodasini c1 xonasiga qo'yib, uni farzin yoki boshqa donaga aylantirishi mumkin, bunda piyodani e2 dagi oq ot ura oladi, lekin qoralar ham a3 dagi fili bilan otni urib, bir piyoda baravariga ot olgan bo'ladi. Oqlar ham o'zining a7 dagi piyodasini farzinga aylantirishi mumkin; masalan a7 dagi piyoda b8 dagi qora otni urib, o'zi farzin yoki boshqa donaga aylanishi mumkin. Qoralar hatto filni yurib, otini saqlab qolsa ham, baribir, oqlarning farzin qilishiga to'sqinlik

qila olmaydi, chunki a7 dagi piyoda a8 xonasiga ham yurib farzin bo'la oladi.

c2 va a7 (shuningdek f6) piyodalari "chiquvchi" piyodalar deb ataladi, chunki ularning farzinga chiqishiga raqibning hech qandaypiyodalari halaqit bera olmaydi.

10-pozitsiyada oqlar o'zining oti bilan f6 dagi qora piyodani urishi (ya'ni "otini piyodaga qurbon etishi") ham mumkin, unda g7 dagi qora piyoda otni uradi va g6 dagi piyoda chiquvchi piyoda bo'lib qoladi va ikki yurishda farzinga aylanadi.

² Farzin va ruh – "katta" donalar, fil va ot "yengil" sipohlar deb ataladi.

YURISHLARNI YOZISH

Yurishlarni yozishda eng oldin donalarning qisqartirilgan nomi, so'ngra turgan xonasi va keyin yuradigan xonasi ko'rsatiladi. Piyodaning yurishini yozganda uning qisqacha nomi ko'rsatilmaydi.

Shaxmat adabiyotida quyidagi belgilar qabul qilingan:

- yuradi;
- : uradi;
- + kishit;
- ++ ikkiyoqlama kishit;
- x mot;
- 0-0 qisqa rakirovka;
- 0-0-0 uzun rakirovka;
- ~ xohlaganni yurish;
- ! yahshi yurish;
- !! juda yahshi yurish;
- ? kuchsiz (yoki xato) yurish;
- ?? qo'pol xato;

Yana mana bunday belgilar ham uchraydi:

= o'yin baravar.

Demak, e2-e4 degani piyodaning e2 xonasidan e4 xonasiga surilganligini; Jd1:d6 degani d1 dagi ruhning d6 dagi donani urganligini; a7:b8Φ degani - a7 dagi piyoda b8 dagi donani urib farzibga

aylanganligini; e7:d8K+ degani e7 dagi piyoda d8 dagi donani urgandan keyin otga aylanib kishit berganligini; Ce2-h5++ degani: fil h5 xonasiga yurganini va bunda ikki yoqlama kishit berilganligini bildiradi.

Bu to'la yozish usulidan tashqari qisqa yozish usuli ham bor. Qisqacha yozish usulida donaning faqatgina yurgan xonasi ko'rsatiladi. Yuqorida misol keltirilgan yurishlar qisqacha quyidagicha yoziladi: e4, J1:d6, ab8Φ, ed8K+, Ch5+. Piyodaning e4:d5 urishini qisqacha e:d yoki ed deb yozish mumkin, ya'ni "e" yo'lidagi piyoda "d" yo'lidagi piyodani uradi.

Agarda biron xonaga bir xildagi ikki dona yurishi mumkin bo'lsa, bu holda shu donalardan qaysi biri yurganini ko'rsatish kerak. Chunonchi agar bir ruh a1, ikkinchisi f1 da turgan bo'lsa, bu ruhlarning, masalan, d1 xonasiga yurishlari J1ad1 va J1fd1 deb yoziladi; agar bir ot a2 va ikkinchisi a4 da turgan bo'lsa, ularning c3 ga yurishlari K2c3 va K4c3 tarzida yoziladi. Ravshanki, qisqacha yozish to'la yozilishdek aniq bo'lmasa ham, lekin bir qadar tajriba

orttirgandan keyin ancha qulaydir, chunki vaqt ham, joy ham kamroq ketadi.

Yurishlarni satrdan yozish yoki ustun qilib ham yozish mumkin. Misol uchu o'yinning boshlanishini olaylik:

| Oqlar | Qoralar |
|--------------|----------------|
| 1. e2-e2 | e7-e5 |
| 2. Kg1-f3 | Kb8-c6 |
| 3. Cf1-c4 | Kg8-f6 |

Bu yurishlarning satr qilib to'la yozilishi mana bunday bo'ladi: 1.e2-

e4 e7-e5 2. Kg1-f3 Kb8-c6 3.Cf1-c4 Kg8-f6. Qisqacha yozilishda esa: 1.e4 e5 2. Kf3 Kc6 3.Cc4 Kf6 deb ko'rsatiladi.

Ba'zan biron yurishga, masalan, oqlarning navbatdagi yurishiga izoh beriladi; agarda shunda o'yin ustun qilib yozilsa, qoralarning yurishi o'rniga uch nuqta qo'yib ketiladi. Izohdan keyin esa, endi oqlarning yurishi o'rniga uch nuqta qo'yiladi.

Endi dastlabki holatdan boshlab (1-vaziyatdan), taxtada o'zingiz bir necha o'yinni o'ynab ko'ring.

RAKIROVKA

O'ynovchilarning har birida o'yin davomida bir marotaba shoh bilan ruhni birvarakayiga yurish huquqi beriladi. Bunday yurishga "rakirovka" deyiladi.

Rakirovka qilish uchun ruh bilan shoh o'rtasida hech qanday dona, ya'ni o'z donasi ham, raqib donasi ham bo'lmasligi shart.

Rokirovka mana bunday qilinadi: shoh o'zining ruhi tamonidagi bir xonani qoldirib ikkinchisiga qo'yiladi, ruh esa shohning narigi tamonidagi yondosh xonaga qo'yiladi. Rokirovka

qilganda oldin ruhni yurish ham mumkin, lekin anglashilmovchilik bo'lmaslik uchun ruhni yurgandan keyin darrov shohni ham kerakli joyga olib qo'yish kerak.

Rokirovka shoh tamondagi ruh bilan qilinsa – bunga "qisqa rakirovka" va farzin tamondagi ruh bilan qilinsa—"uzun rakirovka" deyiladi (11-13 vaziyatlarga qaralsin). Quyidagi hollardagina rakirovka qilish mumkin:

1) Rokirovkaga qadar shoh ham, ruh ham o'z joyidan siljitemagan bo'lishi kerak;


2) Shohga kishit berilgan paytda rokirovka qilish (kishit berilgan paytda kishitdan qutulaman deb rokirovka qilish) mumkin emas va rokirovka qilgandan keyin shoh kishitga duch kelmasligi shart;

3) Shoh sakrab o'tadigan xona (qisqa rokirovkada f1 yoki f8 xonalari, uzun rokirovkada d1 va d8 xonalari) raqib donasining zarbasi (hujumu) ostida bo'lmasligi kerak;

4) Yuqorida aytilgandek, shoh bilan ruh o'rtasidagi xonalar bo'sh bo'lishi lozim.

Agarda rokirovka qilayotgan paytda ruh raqib donasining hujumi ostida bo'lsa yoki ruh hujum qilgan xona orqali o'tadigan bo'lsa, bu hol rokirovka qilish uchun to'siq bo'la olmaydi.


11-vaziyat



Rokirovkagacha bo'lgan pozitsiya

Bunda shoh istalgan tamonga rokirovka qilishi mumkin.


12-vaziyat



Qisqa rokirovkadan keyin.

Shoh g1 xonasiga, ruh h1 dan f1 xonasiga birvarakayiga ko'chirildi.

13-vaziyat




Uzun rokirovkadan keyin.

Shoh c1 xonasiga, ruh a1 dan d1 xonasiga birvarakayiga ko'chirildi.

14-vaziyatda oqlar faqatgina rokirovka qila oladi.

Qoralar esa ikkala tamonga ham rokirovka qila olmaydi. Yurish qoralardan bo'lganda ular, ot bilan f3 dan kishit berib, oqlarni rokirovkadan mahrum qila oladi.

14-vaziyat



uchun raqibni rakirovkadan mahrum qilish ko'p hollarda foydali bo'ladi.

Rokirovka qilishdan maqsad shuki, rakirovkadan keyin shohning pozitsiyasi tamoman o'zgaradi va u tinchroq joyga ko'chiriladi, ruh ham darrov o'yinga kiritiladi. Shuning

O'YIN QOIDALARI

Yuqorida aytilgan o'yin qoidalariga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish zarur:

1. O'ynovchilardan qaysi biri oq bilan o'ynashi (va, demak o'yinni boshlashi) kerakligini aniqlash uchun ikki o'rtada chek tashlanadi. Keyin ikki taraf oq-qora bilan navbatma-navbat o'ynaydi. Turnirlarda kim oq, kim qora va va kim bilan kim o'ynashi kerakligi maxsus jadvalda belgilangan.

2. Agar o'ynovchilardan birining navbati kelib yurishi lozim bo'lsa va o'z donasiga qo'lini tekkizsa, o'sha donani yurishga, bordi-yu qo'lini raqibning donasiga tekkizsa, o'sha qo'l tekkizgan donani urib olishga majbur. Bu qoidani qisqacha qilib aytganda "ushlaganni yurish" deyiladi. Ammo qo'l tekkan donaning yuradigan yo'li bo'lmasa yoki raqibning donasini urib bo'lmasa, istaganini yurishi mumkin.

Agarda boronta donani to'g'irlab qo'yish uchungina unga qo'l tekkiziladigan bo'lsa, "to'g'irlyman" deb oldindan ogohlantirish kerak.

3. Agar o'ynayotgan vaqtda o'yin qoidasiga xilof yurish qilinganligi aniqlansa, bu noto'g'ri yurish tuzatiladi va o'yin davom qildiriladi.

Bordi-yu o'yin boshida donalarning noto'g'ri terilgani aniqlansa, o'yin qaytadan o'ynaladi.

4. Agar o'ynovchilardan biri qoidaga xilof rakirovka qilgan bo'lsa, u shoh bilan ruhni ilgarigi joylariga qo'yib, shohi bilan boshqa bir yurishni qilishi lozim.

5. Quyidagi hollarda o'yin durang bo'ladi:

a) Ikkala taraf ham, o'yinni davom qildirishdan foyda yo'qligini ko'rib, o'yinni durang qilish to'g'risida o'zaro kelishishlari mumkin;

b) Agarda taxtada bir xil ahvol uch marta sodir bo'lsa va yurish navbati har safar osha bir tarafdin bo'laversa (masalan, o'ynovchilar bir yurishni takrorlay bersalar), tamonlardan birining xohishi bilan o'yin durang hisoblanadi;

c) Agarda 50 marotaba yurilganda (qoidaga muvofiq, oqlarning bir yurishi va qoralarning shunga javoban yurishi – bir yurish deb hisoblanadi) o'yinda hech bir dona urilmagan va hech qaysi piyoda surilmagan bo'lsa, tarafdin biri o'yinni bas qilib, o'yinning durang bo'lishini talab qilishi mumkin. (O'yinni yutish uchun 50 yurish kamlik qilishi nazariya yo'li bilan isbot qilingan ba'zi bir pozitsiyalarda o'yinni davom ettirish uchun yana 50 yurish beriladi).


KISHT VA MOT

Agarda birorta dona navbatdagi yurishi bilan raqib shohini uradigan holatda bo'lsa, shohga qilingan bu "do'q" "kisht" deb ataladi (shohga

kisht berilgan bo'ladi). Shoh halok bo'lsa - o'yin tugaydi, shuning uchun shohga kisht berilishi bilanoq


navbatdagi yurishda uni himoya qilish kerak.

15-vaziyat



Agar bu 15-pozitsiyada oqlar fil bilan d5 piyodasini urib olsa, qora shohga kisht berilgan bo'ladi. Qoralarning bu kishtdan qutilishi uchun uchta yo'li bor: 1) ular d5 dagi oq filni ot bilan urishi mumkin; 2) shohni tinch xonaga, masalan, e7 ga yurishi mumkin; 3) otni e6 xonasiga yuribkishtni "berkitishi" mimkin va bu bilan oq shohga o'zi kisht bergan bo'ladi. Agar kishtdan qutilish uchun shu aytilgan imkoniyatlardan bittasi ham bo'lmasa, demak qoralarning shohi "mot" bo'ladi va ular o'yinni yutqazgan bo'ladi.

16-vaziyat





Oqlar bir yurishda mot qiladi.

Bunda oqlat otni g3 ga yurib qora shohni mot qiladi. Yuqorida ko'rilgan 8 va 10-pozitsiyalarda ham oqlar bir yurishda mot qila oladi (8-pozitsiyada filni d8 ga va 10-pozitsiyada - otni f2 ga yura oladi).

Quyida mot qilishni ko'rsatadigan yana bir necha misollar kelyiramiz (vaziyatlarda oq shoh yo'q, chunki bu motlar uning yordamisiz qilingan va shuning uchun bu pozitsiyalarda uning ahamiyatidam yo'q).


17-vaziyat

18-vaziyat




19-vaziyat


20-vaziyat




21-vaziyat



22-vaziyat



23-vaziyat




24-vaziyat

25-pozitsiyada qoralar yursa, oqlarni mot qilishi mumkin. Filni qayerga yursa ham, a8 dagi ruh oq shohga kisht beradi. Bunga “ochib kisht” deyiladi (fil ruhga yo’l ochib beradi). Agarda filni d6 ga yurilsa, oqlarga “ikkiyoqlama” (qo’sh) kisht beriladi. Ikkiyoqlama kishtdan faqat shohning o’zini yurib qutilish

mumkin. Bu holda shohni g7 ga yurish mumkin. Ammo qoralar o’z filini e5 ga yursa, oqlar mot bo’ladi.

25-vaziyat



Agar o’yin vaqtida shohlardan biriga kisht berilib turgani aniqlansa, o’yinni o’sha kisht berilgan paytdan boshlab qaytadan o’ynash zarur bo’ladi.

O’yin boshida yoki o’rtasida shohni turli hujumlardan saqlab turishga to’g’ri keladi. O’yin oxirida, taxtada donalar kam qolgan vaqtda esa shohning ahamiyati oshadi va u hujum qilishda o’zi yordamlasha boshlaydi.


DURANG. DOIMIY KISHT. PAT

O’yinda ko’pincha shunday holler bo’ladiki, ikkita o’ynovchining bittasi ham yuta olmaydi va shunda o’yin “durang” bo’ladi.

26-pozitsiyada oqlar qoralar shohiga fil bilan f5 dan kisht bergan. Qoralar shohni g8 dan boshqa xonaga yura olmaydi. Qoralar shohni kishtdan farzin bilan to’sa olmaydi, chunki

shoh ochilib qoladi (shuning uchun farzin “ochmas” bo’lgan). Qora shoh g8 ga yurgandan keyin oqlar fil bilan e6 dan kisht beradi. Endi qoralar kishtni farzin bilan to’ssa bo’ladi-yu, lekin farzin bekorga ketadi.

26-vaziyat




Qoralar shohni f8 ga ham yura olmaydi, chunki oq ruh c8 dan kisht berib mot qiladi. Shuning uchun qoralar shohni yana qaytib h7 xonasiga yurishga majbur bo’ladi. Shundan keyin oqlar fil bilan yana f5 dan kisht beradi. Ana shunday beto’xtov berilgan kishtga “doimiy kisht” deyiladi. Bu pozitsiyada ikkala taraf ham yuqorida aytilganicha yurishlarni noiloj takrorlashga majbur va doimiy kisht tufayli o’yin durang bo’ladi.

27-28 –pozitsiyalarda ham kuchli taraf (qoralar) o’yinni yutqazib qo’ymaslik uchun doimiy kishtdan foydalanishi mumkin.


27-pozitsiyada qoralar f1 va f2 xonalaridan, 24-pozitsiyada esa e1 va h4 xonalaridan kisht beraverib, o’yinni durang qiladi.

Doimiy kishtdan tashqari, “pat” holati yuz berganda ham o’yin durang bo’ladi.


27-vaziyat




28-vaziyat



29-vaziyat



30-vaziyat




Yurish oqlardan. Pot.


O’ynovchilardan birining yurishi kerak, uning shohiga kisht berilmagan, lekin uning yurishi uchun shohiga ham, boshqa donalariga ham yo’l yo’q – ana shunday ahvolga pat deyiladi.

29 – 30 pozitsiyalarda qoralar oq shohning hamma yo’lini to’sib qo’ygan, lekin unga kisht berilmagan, ya’ni pat bo’lgan. Demak o’yin durang bo’lgan.

31-vaziyat




32-vaziyat




31-32 vaziyatlarda ham ahvol xuddi shunday.

O'ynovchi taraflarda ko'pincha raqib shohini mot qilish uchun yetarli kuch qolmaganligi tufayli o'yin durang bo'lib tugaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, donalar urishtirilib, ikkala tarafda ham faqat shohlargina qolsa, o'yin durang bo'ladi. Ammo bir tarafda bir sipoh (fil yoki ot) ortiqcha qolganda ham, yakka shoh va bir sipoh bilan o'yinni yutish mumkin emas.

33-vaziyat




34-vaziyat




Bir fil yoki bir ot bilan mot qilib bo'lmaydi. 33-34 vaziyatlarda ko'rsatilishicha, raqib shohini ba'zi hollarda pat qilish mumkin-u, lekin

mot qilib o'yinni yutish mumkin emas.

35-vaziyat



36-vaziyat



35-36 vaziyatlarda atigi bir sipoh bilan mot qilish pozitsiyalari ko'rsatilgan. Ammo bu pozitsiyalarda mot bo'luvchi tamonda ham sipoh bo'lib, bu sipohlar o'z shohining yo'lini to'sib turibdi va faqat shu tufayli mot bo'lgan. Agarda qora fil (yoki ot) shunday noqulay vaziyatda turmaganda edi, mot qilish mumkin bo'lmas edi.


Demak, taxtada qolgan donalarning miqdorigina emas, balki ularning qanday joylashtirilganliklari, ya'ni pozitsiyasi ham juda muhim ahamiyatga egadir.

Quyidagi misol ham buni yaqqol ko'rsatib turibdi.


37-38 vaziyatlarda oqlar "sifat"ga ega (ruhning kuchi fil yoki otdan zo'r bo'lganligi uchun "sifat" deyiladi).

37-vaziyatdagi pozitsiyada sifatning borligi o'yinni yutish uchun kifoya qiladi. Oqlar ruhni, masalan d8 ga yurib, fursat poylaydi.

37-vaziyat



38-vaziyat



Qoralar esa o'zining shohini faqat h8 ga yurishga majbur bo'ladi,

DONALARNING SOLISHTIRMA KUCHI

Donalarni urishtirishga qaror qilishdan oldin, bunday donalarning solishtirma kuchini bilish kerak chunki donalarni urishtirish foydali bo'lishi ham, zararli bo'lishi ham mumkin. Bizga ma'lumki, dona qanchalik harakatchan bo'lsa, uning kuchi ham shunchalik zo'r bo'ladi.

Donalarning o'zaro kuchi quyidagicha solishtiriladi. Piyada—kuch birligi qilib olinadi. Ot bilan filning kuchi baravar hisoblanadi.

chunki fili (26-vaziyatdagi farzin singari) “ochmas” bo'lgan. Shundan keyin oqlar o'zining ruxi bilan filni uradi va mot qiladi.


38-vaziyatammdagi pozitsiyada esa oqlar o'yinni yuta olmaydi, chunki ularda fursat poylab yuradigan imkoniyat yo'q va ular qora shoh bilan filni bir-biridan ajrata olmaydi.

Har-bir pozitsiyaga qarab donalarning bu xildagi kuch o'zgarishi mumkin. Ayniqsa bu, o'yin oxirida butunlay boshqacha bo'lishi mumkin, chunki o'yin oxirida piyadalarning farzinga chiqishi osonlashganligi tufayli piyadaning qiymati ko'p daraja oshadi. Shuning uchun har bir pozitsiyada uning konkret xususiyatlariga qarab ish ko'rish kerak. Masalan, 90-vaziyatdagi pozitsiyada dona urishtirganda oqlar olganidan ko'ra birmuncha ko'proq kuch yo'qotsa

ham, lekin ustunligini saqlab qolaveradi (bir piyadaga qarshi ikki piyada). “Zo‘rning ishi — urishtirish” degandek bundagi urishtirishdan maqsad — pozitsiyani “soddalashtirishdir”, chunki yuzaga keladigan yangi pozitsiyada oqlar tezroq yutadi.

Endi pozitsiyaning xususiyatlariga qarab donalarning kuchi qanday o‘zgarishini ko‘rsatadigan misollarni ko‘rib chiqaylik.

39-vaziyat



Farzin piyadaga qaraganda ko‘p marta kuchlidir, lekin 39- vaziyatdagi pozitsiyada e7 dagi piyada farzinga chiqish oldida turidbi, demak uning kuchi ancha oshgan. Qoralarning qanday qilib yutganini kuzatish juda qiziq.

1. ... $\Phi b8-b7+$
2. $Kpd7-d8$...

Agarda 2. $Kpd7 — d6$ yursa, qoralar 2. ... $\Phi b7 — c8$ va 3. ... $\Phi c8 — e8$ o‘ynaydi, shundan keyin shoxni piyadaga yaqinlashtirib, uni urib oladi.

2. ... $\Phi b7-d5+$
3. $Kpd8-c7$ $\Phi d5-e6!$
4. $Kpc7-d8$ $\Phi e6-d6+!$

Bu kisht juda muhim. Endi oqlar shoxni e8 ga yurib, o‘z piyadasining yo‘lini tusishga majbur bo‘ladi va shunday qilib, qoralar o‘z shoxini yaqinlashtirish uchun fursatdan foydalanadi (yani “temp yutadi”).

5. $Kpd8 - e8$ $Kpb4-c5$
6. $Kpe8-f7$ $\Phi d6-d7$

Piyadaning surilishiga to‘sqinlik qilish uchun qoralar uni ochmas qiladi.

7. $Kpf7 - f8$ $\Phi d7-f5+$


Endi qoralar, yana boyagi taktika yo‘lini qo‘llab, shoxni yaqinlashtirish uchun yana temp yutadi.

8. $Kpf8 - g7$ $\Phi f5 - e6!$
9. $Kpg7 - f8$ $\Phi e6- f6 +!$
10. $Kpf8 - e8$ $Kpc5-d6$
11. $Kpe8-d8$ $\Phi f6:e7+$
12. $Kpd8 - c8$ $\Phi e7-c7X$


Agar 39-vaziyatda qora shoxni d4 va farzinni e1 xonasiga qo‘yib

pozitsiyani o'zgartirsak qoralar o'yinni yuta olmasligini ko'rish oson, chunki piyadaning farzinga chiqishiga to'sqinlik qiladigan kish berishning hech qanday iloji yo'q.

40-vaziyat



41-vaziyat



Durang.


Durang.

Ruh va fil yo'lidagi piyadalar bo'lgan bunday pozitsiyalarda farzinli taraf o'yinni kamdan-kamgina yutadi, chunki piyadali taraf pat bo'lish imkoniyatidan foydalana oladi.


40-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar 1. ... $\Phi f5-g5+$ bergandan keyin oqlar 2. $Kpg7-h8$ o'ynaydi va endi qoralar o'z shoxini yaqinlashtira olmaydi, chunki oqlar pat bo'ladi. 41-vaziyatdagi pozitsiyada 1. ... $\Phi f5-g5+$ 2. $Kpg7-h7$ $\Phi g5-f6$ 3. $Kph7-g8$ $\Phi f6-g6+$ dan keyin oqlar 4. $Kpg8-f8$ emas, balki 4. $Kpg8-h8!$ o'ynaydi va agarda qoralar $\Phi:f7$ ursa, oqlar pat bo'ladi.

Bunday pozitsiyalarda kuchli tarafning shoxi piyadaga etarli darajada yaqin turgan taqdirdagina o'yinning natijasi boshqacha bo'lishi mumkin (42- vaziyatga qaralsin).

42-vaziyat



43-vaziyat



Yurish qoralardan. Yurish qoralardan.

Yurish qoralardan.

42-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar kishga javoban shoxni bevaqt a1 xonasiga yurmasligi lozim, chunki buning natijasida oq shox yaqinlashib oladi va ularning mot qilishidan qutulib bo'lmaydi.


Qoralar 1. ... $Kpb1-c2$ (yoki c1) yursa, o'yinni durang qila oladi, lekin 1. ... $Kpb1-a1?$ yursa, — o'yinni yutqazadi, chunki 2. $Kpc7-b6!$ $Kpa1-b2$ 3. $Kpb6-c5+$ (oqlar, ochib kish berishdan foydalanib, shoxini ikki xona yaqinroqqa olib keladi) 3. ... $Kpb2-c1$ 4. $\Phi b7-h1+$ $Kpc1-b2$ 5. $\Phi h1-g2-$ $Kpb2-b1$ 6.

Kpc5-c4 a2+a1Φ 7. Kpc4 — b3!
o'ynaydi.

Qoralar piyadani farzinga chiqargan bo'lsa ham, lekin motdan qutula olmaydi. Bu —o'yinlarda ko'p uchraydigan va muhim taktik manevrdir!

43-vaziyatda piyadaning ruhdan zo'r kelishi ko'rsatilgan. Qoralar 1. ... b3-b2 suradi va uni to'xtatib bo'lmaydi. Oqlar 2. Jlc8— c7 + bersa qoralar Kpa7 — 8 yuradi.

44-vaziyat



Yurish qoralardan.

Bu o'yinda fil farzindan ham zo'r chiqadi.

Qoralarning shoxi juda yomon ahvolda turibdi, oqlar esa bundan

foydalanib, qattiy hujumga o'tib mot qiladi.

Hozir Ca5 — e1+ berib mot qilish havfini tug'dirmoqda.

1. ... Φc2 —e2 2.Ca5 —c7 Φe2 — f2 (yana fil g3 xonasiga kelib mot qilmoqchi; farzin 2-gorizontaldan keta olmaydi, chunki oqlar g2 — g3X qiladi; 2. .. . g5 — g4 surish xam mumkin emas; chunki 3. Cc7-d8 +)
3. Cc7-d6 Φf2—f4+ (qoralarning boshqa iloji yo'q) 4. g2 - g3+!
Φf4:g3+ 5.Cd6:g3x.


173-vaziyatdagi pozitsiyada (Nimsovich – Zemish, Kopengagen, 1923 yil) oq shoh tez aktivlashib, c4

dagi piyodaga hujum qilishi mumkin, qoralarning shohi esa ancha passiv. Oqlarning ustunligi ham ana shundadir.

1.Kpf3 Kpf7 2.Kc3 (oqlar shohiga yo'l bo'shatmoqda) 2. ... Kd4+ (otlarni almashtirish – qoralar uchun ikki qo'lni qovushtirib, mot bo'lishni kutish bilan baravar) 3.Kpe4 Kb3 4.Kpd5 Kd2 5.h3 (bo'lmasa, 5.g4) 5. ... f5 6.Kd1 Kpf6 7.Ke3 Ke4 8.K:c4 K:f2 9.b4 Kpe7.


Oqlar avval shohining aktivligi jixatdan ustun bo'lsa, endi buni ular boshqacha ustunlikka aylantirishga, ya'ni uzoqda joylashgan oldi ochiq piyodaga ega bo'lishga erishdi. 10.b5 Kpd7 11.b6 Ke4 (ot o'z shohiga yordamga kelishga majbur. Agar 11. ... K:h3 bo'lsa, 12.Ke5+ Kpc8 13.Kpc6 va oqlar yutadi) 12.Ke5+ Kpc8 13.Kpc6 Kf6 14.Kd3! Kd7 (bo'lmasa, 15.b7+ Kpb8 16.Kc5 va 17.Ka6) 15.b7+ Kpd8 16.Kpd6 Kb8 17.Kb4 Kd7 18.Kc6+ Kpe8 19.Kpc7 va oqlar g'alaba qozonadi.

FILLI ENSHPILLAR

Otli enshpillardagidek, bir xil filli enshpillarda ham ortiq piyoda hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

Uzoqda joylashgan oldi ochiq piyodaning qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatuvchi yana bir misolni ko'rib chiqamiz.


174-vaziyat



174-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar quyidagicha yurish qiladi va yutuqqa erishadi: 1.Kc2 Kpf4 2.Kpc5 Ka6+ (agar 2. ... e3 bo'lsa, 3.Kpd4 va qoralar e xonasidagi piyodadan ajraladi) 3.Kpb6 Kb8 4.Kb4! Kpe3 (4. ... e3 bo'lsa, 5.Kpc7 Ka6+ 6.K:a6 e2 7.Kb4! va oqlar yutadi) 5.Kpc7 Kpd2 6.Kp:b8 e3 7.Kc6! va qoralar taslim bo'ladi, chunki ot temp bilan f3 ga keladi.

Bunda ham oldi ochiq piyoda barpo qilib, uni farzinga chiqarishga harakat qilish kerak.

175-vaziyat



175-vaziyatdagi pozitsiyani tahlil qilib, filli enshpillarga xos alohida xususiyatlar bilan tanishamiz: 1.Kpg1 Kpf8 2.Kpe2 Kpe7 3.Kpd3 Kpd6 4.Kpc4 Kpc6 5.Ce3 g6 6.b4 Cb6 7.f3 Cc7 8.a4 Cb6 9.Cd4. Oldi ochiq piyoda barpo qilishga qaratilgan tayyorgarlik tugadi. Oqlarning shohi ham, fili ham yahshi pozitsiyani egallab oldi.

9.... Cc7 10.b5+ ab 11.ab Kpb7.

Agar qoralar oq shohning oldiga o'tishga to'sqinlik qilmoqchi bo'lsa, tezda yutqazar edi. Masalan: 11.... Kpd6 12.Cc5+ Kpd7 13.b6 Cg3 14.Kpd5 Cf4 15.Cd4 va 16.Ce5 va hokazo.

12.Kpd5 – plan amalga oshirilmoqda: qoralarning shohi piyoda bilan ovora; oqlar shoh

flangidagi raqib piyodalariga hujum qilmoqchi. Biroq bu yerda o'yin piyodali yoki otli enshpillardagidek hal bo'lay deb qolgani yo'q. Fil uzoqdan turib piyodasiga boriladigan yo'llarni nazorat qila olishi tufayli qoralar oq shohning o'sha tomonga o'tishiga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Oqlar ana shu qarshilikni ham yengishi kerak, ya'ni yutuqqa erishish uchun ular o'z shohiga yo'l ochishi lozim.

12.... Cb8.

Agar 12. ... Cf4 bo'lsa, 13.Ce5 Ce3 14.Kpd6 dan keyin oq shoh piyodalar tomon o'tib ketardi. 13.Ce5 Ca7.

Endi 14.Kpd6 foydasiz, chunki 14. ... Cb8+ dan keyin oq shoh ortiga qaytishga majbur. Yoki 14.Cd6 bo'lsa, 14. ... Cf2! 15.Kpe5 Cg3+ va yana oqlar shohini oldinga sura olmaydi. Bo'lmasa, oqlar qanday qilib raqib filini bu yo'ldan haydashi mumkin? Bu yerda bu endshpilni yana bir marta otli endshpil bilan solishtirib ko'rish foydalidir. Otli endshpilda shoh bir tomon bilan ovora bo'lib qolgandan keyin kuchsiz tomon tez orada sutsuvangga tushib, kuchli

tomonning shohini piyodalarining oldiga o'tkazib yuborishga majbur bo'lgan edi. Bu yerda esa, hozircha sutsuvang yo'q. Shuning uchun kuchsiz tomon fili bilan tinchgina manevrlar qilib, piyodasiga boriladigan yo'llarni qo'riqlab turishi mumkin. Bu yerda ham kuchsiz tomon filining harakatchanligini yanada cheklab bo'ladi.

13.Cf2! Cc7 14.g3 h5 15.h4 (lekin 15.f4? emas, chunki 15.... h4) 15. ... Cb8 16.d6! Oqlar maqsadiga erishdi – qoralar sutsuvangga tushdi. Endi ular raqibining 17.f4, 18.Cd4 va 20.Ce5 manevriga, ya'ni yutuqni ta'minlaydigan piyodali endshpilga o'tishiga to'sqinlik qila olmaydi. Agar qoralar yuqoridagi manevrga to'sqinlik qilish maqsadida 16. ... Kpc8 yursa, 17.Kpc6 Ce5 18.f4 Cb8 19.b7+ Kpd8 20.Cb6+ va 21.Cc7 dan keyin oqlar osongina g'alaba qozonadi.


Filli endshpilda otli va ayniqsa piyodali endshpillarga nisbatan ko'proq qiyinchiliklar borligini va bu qiyinchiliklar kuchli tomonning ortiq piyodasidan foydalanishida durustgina g'ov ekanligi aniqlandi.

Hatto ko'rib chiqilgan ideal misolda ham qoralarni sutsuvangda qo'yish yoki oqlardan shohi bilan qora piyodalar tomon o'tish uchun ancha – muncha aniqlik talab qilinmaydi.

Agar sutsuvang pozitsiyaga erishib bo'lmasa va boshqa fil flangdagi piyodalariga olib boriladigan yo'llarni qo'riqlashga ulgursa, bunday endshpil durang bilan yakunlanishi mumkin.

Kuchlar teng bo'lganda, uzoqda oldi ochiq piyoda borligi pozitsiyaga baho berishni aniqlaydigan muhim belgilardan biri bo'lib hisoblanadi.

176-vaziyat



176-vaziyatdagi pozitsiyada kuchlar teng-u, lekin qoralar uzoqda joylashgan oldi ochiq piyodaga ega. Buning ustiga oqlarning h xonasidagi piyodasi fil hujum qila oladigan xonaga “mixlab” qo'yilgan bo'lib, qo'riqlashni talab etadi.

Taxtadagi donalarning ozligi va h5 piyodasi farzinga chiqadigan xonanaing oqligi (fil esa qora) qoralarning yutuqqa erishish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu pozitsiyada yurish qoralardan.

1.... Cf6! (shu yurishdan keyin oqlar sutsuvangga tushadi. Endi oqlar filini yursa yo piyodasi ketadi yoki b5 dagi piyoda suriladi. Yohud 2.Kpe2 bo'lsa, 2.... Kpf4) 2.f4 Cb2 (2...Kpg4? bo'lsa, 3.Kpe4 Ce7 4.f5 b4 5.f6! Cf8 6.f7 b3 7.Kpd3 yoki 4. ... Cf6 5.Kpd5 Kp:f4 6.Kpc6 Kpg4 7.Kp:b5 C:h4 8.Ca5 Cg3 9.Cd8 Cf4 10.Kpc4 Cg5 11.C:g5 va 12.Kpd3 dan keyin o'yin durang bo'ladi). 3.Cd2 Cg7 4.Cb4 Cf6 5.Ce1 Ce7! Yana sutsuvang. Endi oqlar shohini yurishga majbur. 6.Kpf3 Cd6 7.Cd2 Cc7! Piyodasini qo'riqlashga bog'lanib qolgan oqlar yanada yomonroq yurishlar qilishga majbur. Agar ular filini c1-e3 diagonalidagi biror xonaga yursa, b5-b4 yoki 8.Kpg3 bo'lsa, 8.... Kpe4 masalani hal qiladi. Shuning uchun qoralar f xonasidagi piyodasini berishni afzal ko'radi.

8.Cc3 C:f4 9.Cb4 Ce5 10.Ca5 Cf6 11.Ce1 Ce7! qoralar ko'p marta sutsuvangdan foydalanib, ustunligini orttiriyapti. Oqlar yana chekinishga majbur.


12.Kpg3 Kpe4 va qoralar shohini b xonasidagi piyodasining yoniga keltiradi va g'alaba qozonadi, masalan: 13.Ca5 Kpd3 14.Ce1 Kpc4 15.Kpf4 Cf6 16.Kpf5 Cc3 17.Cg3 b4 18.Cd6 b3 19.Ca3 Kpd3 20.Kpg5 Kpc2 21.Kp:h5 Cd2 22.Kpg4 Cc1.

Ushbu misol yordamida piyodalarning fil hujum qila oladigan xonalarda turishi o'sha tomon pozitsiyasining muhim kamchiligi ekanligini aniqlab oldik. Bu hol filli endshpillarning ko'pchiligiga taalluqlidir. Bunday piyodalar birinchidan, himoyaga muhtojligi tufayli himoyalalanuvchi tomonning kuchlariga erkin harakat qilish imkoniyatini bermaydi. Ikkinchidan, fil piyodalarning o'rtasidagi xonalarga yura olmaydi va bu hol, o'z navbatida, raqib shohining piyodalarga yaqinlashishiga imkoniyat tug'dirishi mumkin. Bunday pozitsiyalarda sutsuvang

yordamida (agar sutsuvangga erishish mumkin bo'lsa) yutuqqa erishiladi.

Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

177-vaziyat



177-vaziyatdagi pozitsiyada qoralarning himoya resurslari tugash oldida. Ularning fili zaiflashib qolgan piyodalarni, shohi esa oq shoh bostirib kiradigan c5 va e5 xonalarini himoyalab turibdi. Oqlar bu yerda yurish navbatini qoralarga berishi lozim. Chunki bu holda qoralar piyodalaridan birini berishga yoki oq shohni o'z lageriga o'tkazib yuborishga majbur bo'ladi va tezda mag'lub bo'ladi. Himoya choralarini aniqlash uchun fil bilan manevr qilib ko'ramiz.

1.Ce2 Cg6! To'g'ri javob bittagina bo'lib, u ham bo'lsa, mana shudir. Agar 1. ... Ce8 bo'lsa, 2.Cd3 Cg6 (2. ... Cd7 bo'lsa, 3.Cc2 Ce6 4.Cd1!+ Cf7 5.Cf3 va oqlar

maqsadiga erishadi) 3.Cc2 Ch7 4.Cb3! Cg8 5.Cd1! Cf7 6.Cf3 dan keyin qoralar sutsuvangga tushadi.

Qoralar filining birdan –bir majburiy yurishlar qilayotganligi ko'rinib turibdi. Oqlar filining har bir yurishiga qoralar filining faqat bittagina muayyan javobi mos kelayotganligini bilib olish qiyin emas. Aytish mumkinki, f3 xonasiga f7 xonasi, e2 ga g6, d3 ga h7, c2 ga g6 va d1 ga e8 xonasi mos keladi. Oqlar ana shu moslikni buza olsa, bas, g'alaba qozonadi. Buni amalga oshirish mumkin, chunki b1-h7 diagonalida manevr qilish uchun oq filga ikkita bo'sh xona bor, qora filga esa bittagina.

4.Cb1! Ch7 5.Cd3! Cg6. Moslik buzildi. Endi, oqlar raqibiga moslikni tiklash imkoniyatini beramsligi kerak. 6.Cc2! Ch7 7.Cb3!! Cg8 8.Cd1 Cf7 9.Cf3 – masala hal, qoralar yutqizadi.


Oqlarning moslikni buzishga qanday erishganligiga (oq fil to'qqiz – toq yurishdan keyin, qora fil esa sakkiz – juft yurishdan keyin o'z joyiga qaytib kelganligiga) yahshi e'tibor bering va sodir bo'lgan pozitsiyani o'sha holicha qoldirmay,

turlicha variantlarda o'zingiz yutuqqa olib boring.

Turlicha (bir tomonda oq, ikkinchi tomonda qora) fillar qolgan endshpillarda moddiy ustunlik ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lamydi. Bitta, hatto, ba'zan ikkita yoki uchta ortiq piyoda g'alaba qozonish uchun yetarli bo'lmay qoladi.

Endi esa bir tomonda oq ikkinchi tomonda qora fillar qolgan pozitsiyalarni ko'rib chiqamiz.

178-vaziyat



Ushbu pozitsiyada o'yin quyidagicha davom etadi: 1.Kpf1 Kpf8 2.Kpe2 Kpe7 3.Kpd3 Ce6 4.b3 (4.a4 bo'lsa, 4. ... Cb3 5.a5 Ca4 dan keyin ortiq piyodaning ahamiyati

qolmaydi) 4. ... Kpd6 5.Cb4+ Kpc6 6.Kpc3 g6 7.a4 Kpb6 8.Cf8 h5 9.h4 Cd5 10.g3 Ce6.

Endi ba'zi hulosalar chiqarish kerak. Bu yerda oqlar, fillar bir xil bo'lgan holdagidek, oldi ochiq piyoda barpo qila olmaydi. Lekin, ehtimol, ular shohi bilan boshqa flangdagi piyodalarning oldiga o'ta olar.

11.Kpd4 Cb3 12.a5+ (piyodalarning ana shunday joylashuviga erishish, kuchsiz tomon uchun foydali) 12. ... Kpb5 13.Kpe5 Cc4 14.h4 Kpc6 17.f3 Cd5!

Bu o'yin ohiri durang bilan yakunlanadigan bo'lsa-da, diqqat bilan o'ynash kerak. Oqlar 18.g4! yordamida oldi ochiq h xonasidagi piyodaga ega bo'lmoqchi va g'alaba qozonmoqchi edi. 18.Kpf4 Kpb5 19.g4 Kpc6 20.gh gh. Endi oqlar hech nima qila olmaydi.


Ko'rib chiqqan misolimiz turlicha filli endshpillarning xususiyatlarini yaqqol namoyish qiladi. Bunday endshpillarning birinchi xususiyati shundan iboratki, fil oldi ochiq piyodaning surilishiga yordam beraolmaydi, chunki u raqib

fili hujum qiladigan xonalarni nazorat qila olmaydi.

Ikkinchi xususiyati – fil boshqacha xonalarda (masalan, fil oq, piyodalar esa qora xonalarda) joylashgan raqib piyodalariga hujum qila olmaydi. Shuning uchun, agar kuchsiz tomon shohi bilan piyodaning oldiga raqib fili nazorat qila olmaydigan xonani egallay olsa va fili bilan har ikki flangdagi piyodalarini himoyalashga ulgursa, kuchli tomon yuta olmaydi.

Bu xususiyatlar bunday enshpillarga xos natijada durang bo'ladigan asosiy uchta pozitsiyani belglab beradi.


179-vaziyat



179-vaziyatdagi pozitsiyada oqlarning shohi istagan tomonga yura olishiga qaramasdan, bu yurishlar foydasiz. Qoralarning yakka fili har

ikki flangdagi piyodalarni himoyalay oladi. Shuning uchun natija durang bo'ladi.

180-vaziyat




180-vaziyatdagi pozitsiyada qoralarning shohi piyodaning oldidagi fil hujum qila olmaydigan xona (d7)ni egallay olmagan, binobarin, bundan avvalgi vaziyatdagidan ko'ra noqulayroq joylashgan.

Shunga qaramay, qoralar durangga erishadi: 1.Kpb6 Cd7! Agar qoralar buning o'rniga 1. ... Ce2? bilan piyodani qo'riqlamoqchi bo'lsa – 2.Kpc6 dan keyin ularning xatolikka yo'l qo'yganliklari ma'lum bo'lib qolar edi. Shaxmat deyarli hamma vaqt aniqlikni talab etadi. Yakka filning ikkala flangdan piyodalarni himoyalashga ulgurishi ko'rib chiqilgan ikki pozitsiya uchun ham karakterlidir.

Xar xil filli endshpillarda oldi ochiq piyoda faqat shohning

yordamida olg'a surilishi mumkin. Shuning uchun agar himoyalanchi tomon raqib shohini piyodalarining surilishini quvvatlashiga xalaqit bera olsa, yutuqqa erishish mumkin bo'lmay qoladi.

181-vaziyat




181-vaziyatdagi pozitsiya – himoya choralari mavjud bo'lgan uchinchi xil pozitsiyadir. Oqlar, ikkita ortiq piyodaga ega bo'lishiga qaramay, g'alabaga erisha olmaydi, chunki qoralar oq shohining o'zi uchun kerakli xona (g8) ga o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan: 1.Kpf5 Kpd6! 2.Kpg6 Kpe7 3.g5 Kpf8! – durang.

Agar 3. ... Kpf8 ning o'rniga 3. ... Cc3?? bo'lsa, 4.h8♣! C:h8 5.Kph7 Cc3 Kpg8! – oqlar ortiq piyodalaridan birini berib, buning evaziga shohi bilan kerakli xonaga o'tib olardi va oldi ochiq ikkinchi piyodasini surish imkoniyatiga ega bo'lar va g'alaba

qozonardi: 6. ... Cb2 7.g6 Kpf6 8.Kph7 va hokazo.

Bundan avvalgi ikki pozitsiyada qoralar (himoyalanchi tomon) passiv taktika tutgan bo'lsa, hozirgi pozitsiyada shohi bilan aktiv harakat qilib, durangga erishadi. Har xil filli enshpillar hamma vaqt ham durang bo'lavermaydi.

182-vaziyat



182-vaziyatdagi pozitsiya (Polnen – Chigorin, Peterburg, 1881 yil) da qoralar 1. ... b5! o'ynab, bir piyodasini qurbon qiladi: 2.ab ab 3.cb. vujudga kelgan bu pozitsiyada rasman qaralsa, oqlar ustunlikka ega bo'lib olgandek ko'rinadi. Haqiqatda esa qoralar hal qiluvchi pozitsiyaviy ustunlikka ega: qoralarning ikkita oldi ochiq piyodasi oqlarning uchta oldi ochiq piyodasidan xavfliroqdir, qoralarning yakka filli oq piyodalar bilan muvaffaqiyatli ravishda kurasha oladi. Oq piyodalar bilan kurashda


qoralarning shohi filiga yordamlashishi shart emas. Shuning uchun u o'z piyodalariga yaqinlashishi va ularga yordamlashishi mumkin. 3. ... Kpd7 (buning o'rniga qoralar 3. ... c4 o'ynab, songra shohini mo'ljaldagi tomonga yursa, maqsadga tezroq erishadi) 4.Cd3 Kpc7 5.Cf1 Kpb6 6.Kpg2 Kpa5 7.Kpf3 Kpb4 8.b6 c4

9.b7 c3 10.Cd3 Kpb3 11.Kpg2 c2 va qoralar g'alabaga erishadi.

Ko'rib chiqqan ohirgi misolimiz har xil filli enshpillarda moddiy ustunlik emas, balki shohlarning oldi ochiq o'z piyodalarini qanchalik samara bilan quvvatlay olishi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

RUXLI ENDSHPILLAR

Bunday o'yin oxirlarida pozitsiyaga baxo berishda ruhning harakatchanligi asosiy rolni o'ynaydi. Hatto moddiy ustunlikka erishgan tomon ham bu ustunlikdan muvaffaqiyatli foydalanish uchun o'z ruxini faollashtirishi kerak. Ruh passiv bo'lsa, moddiy ustunlikdan foydalana olmaslik mumkin.



183-vaziyat

183-vaziyatdagi pozitsiya 1927 yilda Buenos-Ayresda jahon chempionligi uchun o'tkazilgan Alyoxin – Kapablanka matchida vujudga kelgan bo'lib, bunda oqlarning uzoqda joylashgan ortiq oldi ochiq piyodasini qora rux to'sib turibdi. Oqlar piyodasini qo'riqlash kerak.

O'yin quyidagicha davom etgan edi:

1.Jd4-a4! ...

Bunday pozitsiyalarda ruxning piyodaning orqasida turishi kuchli hisoblanadi, chunki payti kelganda, piyodani surish imkoniyati tug'iladi. Shu tufayli qora rux passivlashishga majbur. Endi oqlar shohini d5 ga olib borib, qora ruxni a6 dan qo'zg'atmoqchi va piyodasini surmoqchi. Shuning uchun qoralarning shohi ruhiga yordam berishga shoshilishi lozim.

- 1.... Kpg7-f6
- 2.Kpg2-f3 Kpf6-e5
- 3.Kpf3-e3 h6-h5
- 4.Kpe3-d3 Kpe5-d5
- 5.Kpd3-c3 Kpd5-c5

Qoralar hozircha oq shohni piyodaga juda ham yaqinlashtirmaslikka erishdi.

6. Jla4-a2 ...

Oqlarning rejasi ravshanlashmoqda: ular raqibi uchun barcha foydali yurishlarni qilib olish imkoniyatini berib, natijada bunday yurishlarning tugashini va raqibining sutsuvangda qolishini kutmoqda.

- 6.... Kpc5-b5

6.... Jla8 bo'lsa, 7.a6 va oqlarning pozitsiyasiyanada kuchayadi.

- 7.Kpc3-d4! ...

Oqlar raqibi shohining piyoda bilan ovvora bo'lib qolishidan foydalanib, shohi bilan narigi flangdagi piyodalar tomon yo'l olmoqda.

- 7.... Jla6-d6+

- 8.Kpd4-e5 Jld6-e6+

- 9.Kpe5-f4 Kpb5-a5

Qoralar a5 dagi piyodani olganda (7. ... Jla5) vujudga keladigan piyodali enshpilda tezda mag'lub bo'lar edi. Shuning uchun ular shohini piyodaning oldiga o'tib, ruhini faollashtirdi.

- 10.Kpf4-g5! ...

Endi oqlar katta ustunlikka erishib, shohi raqib piyodalarining ichiga kirib oldi. Mana shuning uchun endshpillar bo'yicha yirik mutaxassis, grossmeyster Y.Averbax qoralarning uchinchi yurishi (3. ... h6-h5)ni noqulay qilingan deb hisoblagan edi.

- 10.... Jle6-e5+

Qoralar ruhidan bo'lak nimani o'ynasin! Bu – bo'lajak sutsuvangdan nishonadir.

- 11.Kpg5-h6 Jle5-f5

- 12.f2-f4 ...

Alyoxin o'z vaqtida ko'rsatib o'tganidek, 12.Kpg7 Jf3 13.Kpg8! Jf6 14.Kpf8 Jf3 15.Kpg7 Jf5 16.f4! dan keyin qoralar sutsvangga tushardi, ya'ni oqlarning ishi osonlashardi. Partiyada qilingan yurish qoralarga o'yinni cho'zish imkoniyatini beradi, xolos.

12.... Jf5-c5

13. Ja2-a3 Jc5-c7

14.Kph6-g7 Jc7-d7

15.f4-f5! g6:f5

16.Kpg7-h6 f5-f4!

Qoralar o'zini himoyalashda barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda.

17.g3:f4 Jd7-d5

18.Kph6-g7 Jd5-f5

19.Ja3-a4 Kpa6-b5

20.Ja4-e4! ...

Bu – hal qiluvchi yurishdir. a5 piyodasi o'z xizmatini bajardi, endi uni bersa bo'ladi.

20.... Kpb5-a6

20.... Kp:a5 yaramaydi, chunki

21. Jle5+

21.Kpg7-h6 Jf5:a5

21.... Kpb7 bo'lsa, 22. Jle5 Jf:f4

23.Kp:h5 va oqlar yutadi.

22.Jle4-e5 Ja5-a1

23.Kph6:h5 Ja1-g1

24.Jle5-g5 Jlg1-h1

25.Jlg5-f5 Kpa6-b6

Qoralar shohining uzoqligi tufayli yutqazmoqda. Agar u yaqinroq, masalan, d7 da turganda, o'yinni durang qilish imkoniyatiga ega bo'lar edi.


26.Jf5:f7 Kpb6-c6

27.Jf7-e7!

Qoralar taslim bo'ldi, chunki ularning shohi rux bilan kesib qo'yildi va u piyodaga qarshi kurashda o'z ruxiga yordam bera olmaydigan bo'lib qoldi. Bu yutuq Alyoxinga jahon chempioni bo'lish imkonini bergan edi. Shunday qilib, ruxli endshpillarda ham ortiq piyodadan foydalanish usuli filli yoki otli enshpillardagidek bo'lib, bunda ham kuchli tomon oldi ochiq piyoda barpo qiladi va uni olg'a surishga intiladi. Agar oldi ochiq piyoda bilan rux kurashayotgan bo'lsa, kuchli tomonning shohi shu tomonga keladi va ruxining yordamida piyodasini olg'a sura boshlaydi. Agar piyoda bilan shoh kurashayotgan bo'lsa, o'yinda g'alaba qozonish uchun shoh bilan raqib piyodalariga yaqinlashish

(ko'rib chiqqan misoldagidek) va hal qiluvchi ustunlikka erishish kerak. Kuchli tomonning ruxi faol bo'lganda ham ko'pgina qiyinchiliklarni yengish kerakligini ko'rib chiqdik. Kuchli tomonning ruxi yetarli darajada faollashmasa, muvaffaqiyat qozonish masalasi yanada qiyinlashadi. 276-vaziyatdagi pozitsiya bundan oldingi pozitsiyadan ruhlarning joylashuvi jihatidagina farq qiladi, xolos.

184-vaziyat



Kuchsiz tomonning ruxi piyodaga uning oldidan emas, orqasidan hujum qilmoqda. Kuchli tomonning ruxi esao'z piyodasini oldidan turib qo'riqlamoqda. Donalarning bunday joylashuvi kuchsiz tomon uchun foydali, chunki bu holda kuchsiz tomonning ruxi bir vaqtning o'zida ikki vazifani ado etadi, ya'ni u ham oldi ochiq piyoda bilan kurashadi, ham boshqa flangdagi piyodalarga hujum qiladi.


Xo'sh, oqlar ortiq piyodadan qanday foydalanishi mumkin? Oqlar piyodasini a7 gacha surib bora oladi, lekin bu bilan ularning pozitsiyasi yahshilanmaydi. Chunki bu holda a8 dagi rux joyidan qo'zg'almay qoladi. Agar piyoda a7 yoki b7 ga borib, ruxini piyoda himoyalashdan ozod qilmoqchi bo'lsa, qora rux shohning ketidan kisht beraverib, uni haydaydi va yana a vertikaliga kelib oladi. Shuning uchun oqlar piyodasini a6 gacha surishi va a7 xonasini shohi uchun kishtdan pana joy sifatida band qilmsligi mumkin. Lekin bu holda oqlar boshqa qiyinchilikka duchor bo'ladi; oqlarning shohi a xonasidagi piyodaga yaqinlashishi uchun boshqa piyodalarni himoyasiz qoldirib ketishga va ularning bittasi yoki ikkitasidan ajralib qolishga majbur. Oqlar shohi bilan a xonasidagi piyoda tomon yo'l olganda, qoralar passiv taktika tutmay (shohi bilan h7, g7 xonalariga yuvaremay) o'z o'yinini faollashtirib yuborishi ham mumkin. Masalan: 1.a6 Kpf6 2.Kpf3 h5 3.KPe3 (3.Kpe4 bo'lsa, 3. ... JI:f2 4.Kpd5 JIa2! 5.Kpc6 Kpf5 6.Kpb7 Kpg4 7.JIf8 Kp:g3 8.a7 Kp:h4 9.JI:f7

g5 10.a8Φ Л:a8 11.Kp:a8 g4 dan keyin qoralar yutuq pozitsiyaga ega bo'lib olar edi) 3. ... Kpf5 4.f3 Лa3+ 5.Kpd4 Л:f3 6.Лf8 (6.Kpc5 bo'lsa, 6. ... Лa3 7.Kpb6 Kpg4) 6. ... Лa3 7. Л:f7+ Kpg4 8. Лf6 Kp:g3 9. Л:g6+ Kp:h4. Qoralar donalar tengligiga erishganligiga qaramasdan, qora shohning unchalik qulay pozitsiyaga ega emasligihimoyani ancha qiyinlashtiradi. 10.Kpc5 Kph3 11.Kpb6 h4 12. Лg5 Л:a6 (eng osoni shu. Lekin 12. ... Kph2 13. Лa5 Л:a5 14.Kp:a5 h3 15.a7 Kpg1 16.a8Φ h2 dan keyin ham qoralar, o'zimiz bilgandek, durangga erishar edi). 13.Kp:a6 Kph2 14.Kpb5 h3 15.Kpc4 Kph1 16.Kpd3 h2 17.Kpe2 – pot.

Ruxli enshpillarda piyodalarning joylashuviga qarab, turlicha himoya choralari qo'llanilishi mumkin. Lekin bularning har birida ham durangga erishish imkoniyati asosan boshqa flangdagi piyodalarga hujum qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shunga o'xshash – kuchsiz tomonning ruxi piyodaning orqasidan hujum qiladigan pozitsiyalarda kuchli tomon boshqa flangdagi piyodalar joylashuvidagi zaifliklarga hujum qila olsa, (yoki

kuchsiz, tomon ayrim sabablarga ko'ra faol qarshi o'yin qilishga ulgurmasa), o'yinni yutishi mumkin.

185-vaziyat




185-vaziyatdagi pozitsiyada oqlar uchun shohi bilan o'zining a xonasidagi piyodasi tomon yo'l olish xavfli bo'lar edi, chunki bunda qoralar ham oqlarning g3 xonasidagi piyodasini urib olib, oldi ochiq piyoda (g4) ga ega bo'lardi. Yutuqqa olib keluvchi yurish 1.a7! dir. Bu yurishdan keyin qoralarning ruxi g3 piyodasini ola olmaydi va oqlar o'z shohini f5 piyodasi tomon yurishi mumkin. Masalan: 1. ... Kph7 2.Kpf1 Kpg7 3.Kpe1 Kph7 4.Kpd1 Kpg7 5.Kpc1 Kph7 6.Kpb1 Лa5 7.Kpb2 Kpg7 8.Kpb3 Kph7 9.Kpb4 Лa1 10.Kpc5 Kpg7 11.Kpd5 (11.Kpb6 ning foydasi yo'q, chunki 11. ... Лb1+) 11. ... Лa2 12.Kpe5 Лa5+ 13.Kpe6 Лa6+ (qoralar sutsuvangda, shuning uchun piyodani berishga

majbur. 13. ... La6+ ning o'rniga 13. Kph7 bo'lsa, 14. Kpf6!) 14. Kp:f5 La5+ 15. Kpe6 La6 16. Kpe7 La1 17. f5 Le1+ 18. Kpd6 La1 (18. ... Ld1+ bo'lsa, 19. Kpe5 Le1+ 20. Kpf4 Lf1+ 21. Kpg5) 19. f6+ Kpf7 (19. ... Kp:f6 bo'lsa, 20. Lf8+ va 21. $\text{a8}\Phi$) 20. Lh8 L:a7 21. Lh7+ va oqlar yutadi.

Kuchli tomon ruhi bilan o'zining oldi ochiq piyodasini oldidan yoki orqasidan emas, balki flangdan qo'riqlaydigan yana bir muhim pozitsiyani ko'rib chiqaylik.

Bunday hollarda bo'ladigan natija kuchli tomon ruhining o'z piyodalarini qo'riqlay olishi yoki harakat qila olmasligiga bog'liqdir. Buni quyidagi pozitsiyada ko'rib chiqamiz.

186-vaziyat



186-vaziyatdagi pozitsiya

(Averbax – Eyve, Syurix, 1953 yil) da qoralar mag'lubiyatga uchraydi, chunki ular oq shohining a xonasidagi piyodaga yaqinlashishiga to'sqinlik qila olmaydi. Oqlarning aktiv joylashgan ruxi barcha piyodalarni himoyalabgina qolmay, qora shohning aktivligiga yo'l qo'ymaydi. O'yin quyidagicha davom etgan edi:

1. Kpe2-d2 Kpf7-e7

2. Kpd2-c2! ...

a5 dagi kuchli piyodani g6 dagi piyodaga almashtirishning hojati yo'q.

2.... Kpe7-d6

3. Kpc2-b2 La3-a4

4. g2-g3 Kpd6-c6

5. Kpb2-b3 La4-a1

6. Kpb3-b4 La1-b1+


7. Kpb4-c4 Lb1-a1

8. Kpc4-b3 ...

Qoralar taslim bo'ldi, chunki endi ular yana bir piyodasidan

ajrashga yoki oq shohni a xonasidagi piyodasi tomon o'tkazib yuborishga majbur. Bu har ikki holda ham oqlar osongina yutuqqa erishadi. Endi barcha piyodalar bir flangda joylashgan bir pozitsiyani ko'rib chiqaylik.

187-vaziyat



187-vaziyatdagi pozitsiya (Petrosyan – Keres, Moskva, 1951 yil) da qoralar to'g'ri himoyalansa, oqlar, bir piyoda ortiq bo'lishiga qaramasdan g'alaba qozonishga qiyinchilikka duchor bo'lardi. Grossmeyster Keres bu o'yinda quyidagicha to'g'ri yurish qilib, durangga erishgan edi:


1.... h5! Oqlar o'zining o'yin planiga ko'ra g va h xonalaridagi piyodalarini surishi kerak. Shuning uchun qoralar oldindanoq oq

piyodalarning surilishiga to'sqinlik qilmoqda.

2.Лс2 Kpg7 3.Kpg2 Лb5 4.Kpf3 Kpf6 5.h5 (5.h3 va g4 o'yinni soddalashtiradi, xolos) 5. ... Лf5+ 6.Kpg2 Лa5 7.Kph3 Лa4 8. Лd2 Kpe5 9. Лb2 Kpf6 10.Лb5 Лa2 11.Kpg2 Лa4 12.Kpf3 Лa3 13.Kpf4 Лa2 14.f3 Лe2 15.e4 (oqlar uzoq manevrdan keyin piyodalarini surishga kirishadi) 15. ... Лe1 16.Лb6+ Kpg7 17.Лa6 Лb1 18.Лc6 Лg1 19.Лc2 Kpf6 20.Лa2 Kpg7 21.Лe2 Kpf6 22.Лe3 Kpg7 23.e5 Kpf8 24.g4 hg 25.fg Kpg7 26.Kpg5 Лf1 27.Лe4 Лf3 28.h5 gh 29.gh. oqlar oldi ochiq piyoda barpo qilishga erishdi-yu, biroq bu ham ularga hal qiluvchi ustunlik bermaydi. 29. ... f6+ 30.Kpg4 Лf1 31.h6+ Kpg6! (31. ... Kp:h6? bo'lsa, 32.e6! f5+ 33.Kph3! fe 34.e7 va oqlar yutadi). Shu pozitsiyada tomonlar durangga rozi bo'lishdi.

FARZINLI ENSHPILLAR

188-vaziyat



188-vaziyatdagi pozitsiyada oqlarning shohi kishtlardan holi xonaga joylashgan. Shuning uchun ular osongina yutuqqa erishadi.

1. $\Phi f4-b8+$ Kpg8-f7

2. b4-b5 Kpf7-e7

Qoralar shohini yordamga olib chiqmoqchi.

3. $\Phi b8-c7+$ Kpe7-e6

4. b5-b6 $\Phi d5-d6+$

Bo'lmasa, 5.b7 va piyoda farzinga chiqar edi.

5. $\Phi c7:d6+$ Kpe6:d6

6. Kph2-g3 Kpd6-c6

7. Kpg3-f4 Kpc6:b6

8. Kpf4-f5 Kpb6-c5


9. Kpf5-g6 va oqlar yutadi.

Bu yerda farzin zo'r ish ko'rsatdi: ham piyodaning olg'a surilishi, ham shohiga kisht bo'lmasligini ta'minladi.

Farzinli enshpillarda ortiq piyodadan unumli foydalanish odatda oson emas. Piyodalar joylashuvida salgina zaiflik paydo bo'lsa ham, kuchsiz tomon kishti-qoyim tahlikasini solishi ortiq piyodadan foydalanishni qiyinlashtirishi mumkin.

Ba'zan kuchli tomonning shohi kishtdan qutilish uchun o'z lagerida boshpana topa olmasa raqib lageriga dadil yurish qila olishini unutmaslik kerak. Buni 287-vaziyatdagi pozitsiyada ko'rib chiqamiz.

189-vaziyat



189-vaziyatdagi pozitsiyada oqlarning piyodasi farzin bo'lish arafasida turganligiga qaramasdan oq shohning atrofi ochiq. Shuning uchun qoralar kisht bera boshlaydi.

1.... $\Phi h6-h1+$

Agar qoralar shohni o'z lageriga o'tkazmaslik uchun 1.... $\Phi c6+$ bersa, 2.Kpf2! $\Phi b6+$ 3.Kpf1 dan keyin kish tugaydi va tezda mag'lub bo'ladi.

2.Kpf3-f4 $\Phi h1-h6+$

3.Kpf4-e5 $\Phi h6-e3+$

4.Kpe5-d5 $\Phi e3-d3+$

5.Kpe5-c6! $\Phi d3-c4+$

5.... $\Phi:c3+$ bo'lsa, 6.Kpb7!

va kish tugaydi.

6.Kpc6-b6 $\Phi c4-e6+$

7.Kpb6-a7 $\Phi e6-e3+$

8.Kpa7:a6 ...

Oqlar shohi bilan piyodalarni qirishga tushdi. Bu ular erishgan birinchi muvaffaqiyatdir.

8.... $\Phi c4-e6+$

9.Kpa6-a7 $\Phi e6-e3+$

10. $\Phi f8-c5$...

Oqlar b5 piyodasini olishga shoshilmasdan farzinning pozitsiyasini yaxshilashga kirishdi.

10.... $\Phi e3-g3$

11.Kpa7-b7 $\Phi g3-f3+$

Qoralar g7 dagi piyodani shohi bilan ham, farzini bilan ham ura olmas edi, chunki 12. $\Phi c7$ dan keyin farzinlar almashib ketardi.

12. $\Phi c5-c6$ $\Phi f3-d6$

13. $\Phi c6-c7$ $\Phi d3-d5+$

14.Kpb7-b6 $\Phi d5-f5$

15. $\Phi c7-e7!$ $\Phi f5-f2+$

Qoralar piyodasini saqlay olmaydi, chunki 15. ... $\Phi d5$ bo'lsa, 16. $\Phi h4+$ Kp:g7 17. $\Phi d4+$ yoki 15. $\Phi h5$ bo'lsa, 16. $\Phi f8$ $\Phi g6+$ 17.Kpa5 va oqlar yutadi.

16.Kpb6:b5 $\Phi f2-f5+$

17.Kpb5-c4 $\Phi f5-g4$

18.Kpc4-c5 $\Phi g4-c8+$

19.Kpc5-d4 $\Phi c8-g4+?$


20. $\Phi e7-e4+$ va qoralar taslim bo'ladi.

Qoralar oxirgi ikki yurishi yaxshi bo'lmadi-yu, biroq 18.... $\Phi f5+$ 19.Kpd4 $\Phi f2+$ 20. $\Phi e3$ $\Phi f6+$ 21. $\Phi e5!$ $\Phi f2+$ 22.Kpd5 $\Phi f7+$ 23.Kpe4 $\Phi c4+$ 24.Kpe3 $\Phi f1$ 25.b5 $\Phi e1+$ 26.Kpd4 $\Phi d2+$ 27.Kpc5 $\Phi f2+$ 28.Kpc6 $\Phi f3+$ 29.Kpb6 $\Phi f2$ 30. $\Phi d4$ $\Phi e2$ 31.c4 $\Phi e6+$ 32.Kpa5 $\Phi e8$ 33.b6 $\Phi a8$ 34.Kpb4 $\Phi a2$ 35.b5! $\Phi b1+$ 36.Kpc5 $\Phi:b7$ 37.g8 $\Phi+$ Kp:g8 38. $\Phi d5+$ dan keyin ham qoralar baribir yutqazar edi.

Juda ko'p kishlardan qutulishga to'g'ri kelganligi sababli g'alabaga erishish yo'li ancha uzoq bo'ldi. Bunday enshpillarda odatda

markazlashgan farzin kishtlardan qutulish imkonini beradi. Ammo shohni yurayotgan paytda juda xushyor bo'lish lozim, chunki ayrim hollarda piyodalar tufayli u mot bo'lib qolishi mumkin. Buni 288-vaziyatdagi pozitsiyada ko'rib chiqamiz.

190-vaziyat




190-vaziyatdagi pozitsiya (Borisenko – Simagin, Moskva, 1955 yil)da oqlar shohi bilan o'zining c xonasidagi piyodasining oldiga bora olsa, g'alaba qozonishi mumkin. Ana shu maqsadda ular 1. ... $\Phi a1+$ dan keyin ular 2.Kpg4 yurdi. Endi 2.... $\Phi f5+$ bo'lsa, 3.Kph4 $\Phi f3$ 4. $\Phi d8+$ Kpg7 5. $\Phi f6+$ yordamida yutmoqchi. Biroq ular 2.Kpg4 o'ynab, hisobdan yanglishgan edi. Qoralar raqibi o'ylagancha (2. ... $\Phi f5+?$) emas, balki kutilmagan yurish – 2. ... $f5+$ qiladi. Endi oqlar qanday yurish qilmasin, mot bo'ladi, masalan: 3.fg

$\Phi f5+$ 4.Kph4 $\Phi h5X$ yoki 3.Kph4 $\Phi h1X$.

Bir tomon katta ustunlikka egaligida ikkinchi tomonning bittagina oldi ochiq piyodasi bo'lishi tufayli imkoniyatlar tenglashib qoladigan pozitsiyalar ham uchrab turadi. Bunday hollarda piyodaalrning soni emas, balki oldi ochiq piyodalarning qaysinisi oldinroq farzinga chiqishi ahamiyatga egadir (191-vaziyat).


191-vaziyat



191-vaziyatdagi pozitsiyada qoralar to'rt piyoda ortig'-u, lekin 1.a6 dan keyin kishti-qoyimdan o'zga chorasi yo'q.

Farzinli enshpillarda ham shohning aktivligi yutuqqa erishishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadigan bir misolni ko'rib chiqamiz (192-vaziyat).

192-vaziyat



192-vaziyatdagi pozitsiya

(Matevosyan – Muhitdinov, Sumgait, 1960 yil) da yurish qoralardan bo'lib,

+ 6.Kpe2 Kpg2 7.Φd2 Φb1! 8.Φf4 Φf1+ 9.Kpe3 Φe1+ va oqlar taslim bo'ldi.

SHAXMAT BO'YICHA MUSOBAQALARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

Doiraviy turnir – bir shaxmatchining turnirning boshqa barcha ishtirokchilari bilan bir partiyadan o'yin olib borishidir.

Ikki davrali turnir – doiraviy turnirning o'zi bo'lib, faqat bunda ishtirokchilar bir – birlari bilan ikki marta uchrashib, birinchi holatda ular oq tomonda, ikkinchi holatda esa qora tomonda va teskarisiga ishtirok etishadi.

Shvetsarcha tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa – bu, ishtirokchilar soni ko'p bo'lgan va o'yin davomida undan chiqarib yuborilmaydigan musobaqa bo'lib, unda kuchli shaxmatchilar o'zlaridan kuchli raqiblariga qarshi kurash olib boradilar. Natijalari qoniqarsiz bo'lgan ishtirokchilar esa bundan oldingi uchrashuvlarda shunday past natija ko'rsatgan ishtirokchilar bilan uchrashishadi.

Shvetsarcha tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda ishtirokchilar har bir boshqa ishtirokchi bilan quyidagi qoidalarga asosan uchrashishadi:

- Ishtirokchilar bir – birlari bilan bir martadan ortiq uchrashish huquqiga ega emas;
- Bir xil natijaga erishib, ochkolar miqdori teng bo'lgan ikki ishtirokchi iloji bo'lishi bilan uchrashishi lozim;
- Raqiblarning sipohlari rangi musobaqa hakami tomonidan iloji boricha ob'yektiv va oqilona aniqlab tanlanadi. Oq va qora tomonda galma – galdan o'yin olib

boorish har bir ishtirokchi uchun eng qulay imkoniyatdir. Hozirda maxsus kompyuter dasturi yordamida qur'a tashlanadi.

Birinchi turnirda barcha ishtirokchilar ushbu turnir o'tkazilishi vaqtida vaqtida bo'lgan reyting baholariga qarab ishtirok etadi. Ro'yxatning yarmidan tepa qismida turgan reyting ko'rsatkichi yuqori bo'lgan ishtirokchi bilan raqib bo'ladi. Odatda ular o'ynaydigan ranglarni qur'a tashlash yo'li bilan aniqlashadi, so'ng esa ranglar ro'yxatning tepa va pastki qismiga qarab almashadi.

Ikkinchi turda musobaqa hakami o'sha qoidalarga ko'ra ochkolarning soniga qarab tashkil etilgan uch guruhda ishtirokchilarni saralab oladi (birinchi turda g'alaba qozongan, during natijaga erishgan va mag'lubiyatga uchragan ishtirokchilar guruhlari). Ishtirokchilarni tanlashning bu jarayoni musobaqaning oxiriga qadar davom etadi.

Match uchrashuvlari

Match uchrashuvida ikki shaxmatchi bir musobaqa doirasida bir – biri bilan bir necha partiyadan o'ynashadi. Odatda matchlar jahon birinchiligi uchun nomzod chempionga qarshi o'ynaganida o'tkaziladi. Matchdagi partiyalar soni odatda juft bo'ladi. Misol uchun, 1996 yilda jahon chempionligiga nomzod bo'lgan Juja Polgar (Vengriya), o'sha paytdagi jahon chempioni Se Szyun (Xitoy) ustidan match o'yinida g'olib kelgandi va ushbu unvonga erishgandi. Matchdagi hisob Juja Polgar hisobiga 8,5:4,5 bo'lgan edi.

Shaxmat soatlari

Shaxmat soatlari ikkita alohida soat va ulardagi bir korpusda joylashgan ikki siferblatlardan iboratdir. Shaxmatchi yurish qilganida u shaxmat soatidagi tugmachani bosib, o'z vaqtini to'xtatadi va raqibning vaqtini yurgizadi.

Turnir musobaqasida alohida unga ajratilgan vaqt mobaynida ma'lum qism yurishlarni amalga oshirgan shaxmatchi raqibida shoxni mot qilish uchun yetarli imkoniyat mavjud bo'lsa, mag'lubiyatga uchragan hisoblanadi. Ko'p hollarda vaqtni nazorat qilib borish zarurati ikki soatda 40 (50 ta) yoki bir yarim soatda 40 (45 ta) yurishni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda “nogahoniy o’lim” nomi bilan yuritiladigan vaqt nazorati tobora ommalashib bormoqda. Bunday vaqt nazoratiga ega partiyalar ikki tamon qancha yurish qilib ulgurishlariga qaramay, ular uchun ajratilgan ma’lum vaqtda partiyalar yakunlanishi lozim. Agar raqib tomondan biri, unga ajratilgan vaqt davomida yaxshi natijaga erisha olmasa, uning raqibi g’olib deb topiladi (albatta agar unda, raqib tamon shohini mot qilish uchun yetarli imkoniyat mavjud bo’lsa).

Partiyalarni yozib borish

Vaqt nazorati o’rnatilgan musobaqalarda ishtirok etayotib, shaxmatchilar qancha yurish qilganligini bilish uchun partiyalarini yozib borishlari lozim. Shaxmatchi unga avvaldan belgilab berilgan vaqt davomida ma’lum bir yurishlarni amalga oshirishi lozim bo’lgani sabab, bu talablarni bajara olmasa, u mag’lubiyatga uchragan deb topiladi.

YOSH SHAXMATCHILARNI TAYYORLASH METODIKASI

Shaxmat o’rganishni boshlash uchun eng yaxshi yosh 5-6 yoshdir. Deyarli hamma buyuk grossmeysterlar bu yoshda shaxmat bilan tanishib, yaqin insonlari bilan o’ynashni boshlaganlar. Keyinchalik bilimlarini takomillashtirish uchun tajribali ustozlardan ta’lim olganlar.

Emanuel Lasker shunday dedi: "To'g'ri tayyorgarlik bilan o'quvchi 10 yil ichida o'rganganidan ko'ra sinov va xatolik yo'li bilan bilimni tasodifiy "o'zlashtirib olish" bilan bir necha soat ichida ko'proq narsani o'rganishi mumkin.

Shaxmatni bilgan bola ko'proq o'z-o'zini tanqid qiladi, mustaqil fikrlashga, qabul qilishga odatlanadi, qarorlar qabul qilish, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ruhini cho'ktirmasdan ohirigacha kurashishga o'rganadi.

Umumiy ta'limning zamonaviy kontseptsiyasi bolaning shaxsiyatini rivojlantirish, uning ijodkorlik, muhim shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash, shaxsiyatini shakllantirish g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. Bularning barchasi shaxmat o'ynashni o'rganishni osonlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu inson hayotidagi kichik bir davr hisoblanadi. Ammo bu vaqt ichida bola umrining qolgan qismiga qaraganda ko'proq narsani oladi.

Afsuski, maktabgacha yoshdagi bolalikda barcha sezgir davrlar xususan shaxmat o'ynashni o'rganish hali aniqlanmagan. Ammo bir narsa aniq ma'lum: bu yillarni bekorga o'tkazib yubormaslik kerak. Vaqtni behuda sarflash - bu bola uchun asosiy narsani oson va yengil o'rganish imkoniyatlarini yo'qotadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar har qanday ta'sirga juda sezgir bo'lishadi. Bolalar, shimgich kabi, taassurotlarni, bilimlarni o'zlashtiradilar, lekin ular darhol natija bermaydi.

Zamonaviy rus psixologlari L.Venger, V.Davydov, V.Muxina va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, yosh bolalarning imkoniyatlari katta ekanligini maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali ko'rsatishdi .

Birinchi sinf o'quvchisi o'qishning birinchi kunlaridanoq unga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi, o'quvchilarga bo'ysunishi va maktab hayotining qoidalari, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishi kerak.

Bolalarning xulq-atvorini tartibga solish, uni tarbiyaviy muammolarni hal qilishga bo'ysundirish, darsda o'zini uyushqoq tutishga o'rgatish zarur.

Bola o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifani kuzatishi, tinglasih, eslab qolishi va yechim izlay olishi kerak.

Shaxmat, go'yo bolalarni maktabga tayyorlash uchun maxsus yaratilgan o'yin desak bo'ladi. Shaxmat o'ynash bolaning fikrlashga o'tishiga katta hissa qo'shadi. O'yin tajribasi fikrlashning o'ziga xos xususiyatining asosini tashkil qiladi, bu sizga boshqa odamlar, ularning kelajakdagi xulq-atvorini oldindan bilish va shu asosda o'z xatti-harakatlarini qurish nuqtai nazarini qabul qilishga imkon beradi.

Shaxmat nafaqat bolalarga katta quvonch, zavq bag'ishlovchi o'yin, balki samarali aqliy rivojlanishining vositasi hamdir. Shaxmat asoslarini o'rganish jarayoni bolalarning analitik va sintetik faoliyatni rivojlantirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, fikrlash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, bolani eslab qolish, solishtirish, umumlashtirish, o'z faoliyatining natijalarini

oldindan bilishga o'rgatadi va mustaqillik, sabr-toqat, moslashuvchanlik, xotirjamlik, zukkolik, faollik, qat'iyatlilik, ehtiyotkorlik kabi qimmatli fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi,

Shuning uchun, shaxmat o'yinini o'rganishni bolaning imkoniyatiga muvofiq iloji boricha tezroq boshlash tavsiya etiladi.

Shaxmatni o'rgatish bo'yicha boshlang'ich kurs imkon qadar sodda tartibda tuzilgan mashqlardan iborat bo'ladi. Shaxmat kursini o'rganishda sinfda maxsus tashkil etilgan o'yin faoliyati o'quv vazifalarini bajarish texnikasidan foydalanish, o'yin vaziyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

5-6 YOSHDAGI BOLALARNI SHAXMATGA DASTLABKI O'RGATISHNING 1 YILLIK DASTURI

Shaxmat sporti bilan shug'ullanib boshlagan yosh bolalarda dastlabki tushunchalarni eslab qolishda o'yin orqali yondashish bilan samarali natijaga erishish mumkin. Quyida 5-6 yoshli bolalarda shaxmat bo'yicha dastlabki tushunchalarning o'rgatishning namunaviy dasturini keltiramiz:

1. SHAXMAT DOSKASI

Shaxmat taxtasi, oq va qora xonalar, gorizontal, vertikal, diagonal, markaz.

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Gorizontal". Ikki o'yinchi navbat bilan shaxmat taxtasining gorizontal chiziqlaridan birini donalar bilan to'ldiradi.

"Vertikal". Xuddi shu, lekin shaxmat taxtasining vertikal chiziqlaridan biri to'ldirilgan.

"Diagonal". Xuddi shunday, lekin taxta diagonallaridan biri to'ldirilgan.

2. SHAXMAT DONALARI

Oq, qora, ruh, fil, farzin, piyoda, ot, shoh.

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Sehrli sumka". To'q rangdagi sumkada barcha shaxmat donalari navbatma-navbat yashiringan, o'quvchilar ushlab ko'rish orqali qaysi dona yashiringanligini aniqlashga harakat qilmoqdilar.

"Tahmin". O'qituvchi shaxmat donalaridan birini og'zaki tasvirlaydi, bolalar bu qanday dona ekanligini taxmin qilishlari kerak.

"Qanday umumiy?" O'qituvchi ikkita shaxmat donasini olib, o'quvchilardan qanday qilib bir-biriga o'xshashligini so'raydi. Qanday farq qilishini so'raydi? (rang, shakl.)

"Katta va kichik". Stolda olti xil quti bor. Bolalar eng baland donani nomlashadi va uni birinchi qo'yishadi. Vazifa: barcha donalarni balandligini tartib bilan joylashadi.

3. DONALARNING DASTLABKI TARTIBI

Donalarning dastlabki joylashuvuni

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Xalta". O'quvchilar shaxmat donalarini sumkadan birin-ketin olib, turish holati bo'yicha asta-sekin tartibga soladilar

"Ha va yo'q". O'qituvchi ikkita shaxmat donasini oladi va bolalardan bu donalarning o'yin boshida bir-birining yonida joylashganligini so'raydi.

"To'p". O'qituvchi boshlang'ich pozitsiyasi haqida ba'zi iboralarni aytadi, masalan: "Ruh burchakda" va to'pni o'quvchilardan biriga tashlaydi. Agar to'g'ri joylashtirsa unda to'pni ushlab olish kerak.

4. DONALARNING YURISHI VA OLISHI

(o'quv kursining asosiy mavzusi). Har bir donaning yurish va olish qoidasi. Oq va qora fillar, sifat, yengil va og'ir sipohlar, ruhli, otli, filli, farzinli, shoh oldi piyodalari, yurishda olish, piyodaning o'zgarishi.

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Yo'q qilish o'yini" kursning eng muhim o'yinidir. Bola ichki harakat rejasini shakllantiradi, tafakkurning analitik va sintetik funksiyasi va boshqalar rivojlanadi.

O'qituvchi cheklangan miqdordagi donalar bilan o'ynaydi (ko'pincha umumiy dona ko'rsatkichga nisbatan). Raqibning barcha donalarini urgan kishi g'olib hisoblanadi.

"Labirint". Oq dona shaxmat taxtasining ma'lum bir kvadratida turmasdan yetib borishi kerak "minalangan" dalalar va ular ustidan sakrab o'tmaslik kerak.

“Soqchilarni aldash”. Oq dona shaxmat taxtasining ma'lum bir kvadratida turmasdan qora donalar tomonidan hujum ostida "minalangan" kvadratlarga tegmasdan belgilangan kvadratga yetib borishi kerak.

"Eng qisqa yo'l". Harakatlarning minimal sonida oq dona shaxmat taxtasining ma'lum bir kvadratiga etib borishi kerak.

"Dushman donasining hujumi". Oq dona qora donaga bir harakatda hujum qilishi kerak.

"Ikki zarba". Oq dona bir vaqtning o'zida ikkita qora donaga hujum qilishi kerak.

"Oling". Bir nechta mumkin bo'lgan raqibni urishdan eng yaxshisini tanlashingiz kerak - himoyalangan qismni urish.

"Himoya". Bu yerda siz hujum ostida bo'lgan bir oq dona bilan ikkinchisini himoya qilishingiz kerak.

Eslatma. Ushbu bo'limdagi barcha didaktik o'yinlar va vazifalar (hatto bir qarashda g'alati "Sehrlangan" figuralar va "minalangan" dalalar joylashgan "Labirint" va boshqalar) 6-7 yoshli bolalar uchun ko'rinarli shaklda shaxmatchilar duch keladigan ba'zi real vaziyatlarni shaxmat taxtasidagi o'yinda simulyatsiya qilish orqali hal qilinadi. Bundan tashqari, barcha o'yinlar va vazifalar ko'ngilochar va tarbiyaviy, samarali obrazli va mantiqiy fikrlashni o'rgatishda hissa qo'shadi.

5. SHAXMAT O'YININING MAQSADI

Kisht, mat, pat, durang, bit yurishda mot, qisqa va uzun rakirovka, o'yin qoidalari.

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Kisht yoki kisht emas". O'quvchilar aniqlashlari kerak bo'lgan bir qator qoidalar berilgan: o'quvchilar shohga kisht berildimi yoki yo'qligini aniqlashlari kerak.

“Kisht bering” Raqib shohiga kisht berish amalga oshiriladi.

"Beshta kisht". Beshta oq donaning har biri qora shohga qarshi kisht berishi kerak.

"Kishtdan himoya qilish". Oq shoh kishtdan himoya qilinishi kerak.

"Mot yoki mat emas". O'quvchilar qora shohga mat berilgan yoki yo'qligini aniqlashlari kerak bo'lgan bir qator misollar beriladi.

"Birinchi kisht". O'yin boshlang'ich pozitsiyasidan boshlab barcha donalar bilan o'ynaladi. G'olib birinchi bo'lib kisht bergan o'quvchi bo'ladi.

"Rakirovka". O'quvchilar muayyan vaziyatlarda rakirovkaga ruxsat bor yoki yo'qligini aniqlashlari kerak.

6. BOSHLANG'ICH HOLATDA BARCHA DONALARNING O'YINI.

O'yinni boshlashdagi dastlabki qoidalar bilan tanishish.

Didaktik o'yinlar va vazifalar:

"Ikki yurish". o'quvchiba tahdidlarni yaratish va amalga oshirishni o'rganishi uchun u o'qituvchi bilan quyidagicha o'ynaydi: o'qituvchining har bir harakati uchun o'quvchi o'zining ikkita harakati bilan javob beradi.

O'quv yilining oxiriga kelib, bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- shaxmat atamalari: oq va qora tomonlar, gorizontol, vertikal, diagonal, markaz, raqiblar, asosiy holat, oq, qora, yurish, urib olish, hujum ostida turish, uzun va qisqa rakirovkalar, kisht, mat, pat, durang.

- shaxmat donalarining nomlari: ruh, ot, fil, farzin, shoh, piyoda;

- har bir donaning yurish va urib olish qoidalari.

O'quv yilining oxiriga kelib, bolalar quyidagilarga ega bo'lishlari kerak:

- shaxmat taxtasida harakatlanish;

- shaxmat qoidalarini buzmaganda har bir donani alohida va boshqa donalar bilan birgalikda o'ynash;

- shaxmat taxtasini raqiblar o'rtasida to'g'ri joylashtirish;

- o'yindan oldin donalarni to'g'ri tartibga solish;

- gorizontol, vertikal, diagonalni farqlash;

- rakirovka;

- kisht;

- mot qilish;

- bir yurish orqali mat qilish masalalarini yecha olish.

GLOSSARIY

Advance (rivojlangan shaxmat) – shaxmat o'yinining bir turi bo'lib, unda kompyuter shaxmat dasturlarining yordamidan foydalanish mumkin. Nomi ingliz tilidagi "Advancedchess" iborasidan keladi.

Afzallik - raqib ustidan o'yin ustunligi, bu shaxmatda yanada muvaffaqiyatli pozitsiyalar yoki sipohlarning ko'pligi bo'lishi mumkin.

Armageddon - bu ikki raqib o'rtasidagi yakuniy blits partiyasi (ko'pincha chempionlik o'yinida o'ynaydi). Bunday partiyaning qoidalari biroz o'zgartirildi va odatiy bo'lmagan formatga ega: oq partiya uchun 5 daqiqa, qora esa faqat 4. Biroq, birinchisi faqat g'alaba bilan qoniqadi, qora esa unvonni olish uchun durangni himoya qilish kifoya.

Ataker - o'tkir hujumkor o'yin uslubini qabul qiluvchi o'yinchi.

Blitsor-tez shaxmat o'yini (blits) bo'lgan kuchli o'yinchi.

Blits-tez shaxmat uchun sinonim. Blits musobaqalarida qanday harakat qilish kerakligi haqida o'ylash uchun cheklangan vaqt beriladi. Odatda, blitsda har bir shaxmatchiga butun o'yin uchun faqat 5 daqiqa beriladi, garchi bu vaqt 3 yoki hatto 1 daqiqaga qisqartirilgan tezkor shaxmat turlari mavjud bo'lsa-da.

Blokadalar - raqibning shaxmat sipohlarining harakatlanish oralig'ini cheklaydigan taktika.

Bloker - raqib piyodaning harakatlarini bloklaydigan sipoh.

Bomba - taniqli debyut versiyasini baholashni o'zgartiradigan yangi yechim.

Boshlang'ich pozitsiyasi - shaxmat maydonida sipohlarni o'yin boshlanishidan oldin joylashtirish.

Bo'shliq - partiyaning aniqlaydigan sipohlar harakati o'rtasidagi intervalda kutilmagan harakat, ko'pincha majburiy ko'rinadi.

Cho'ntagida durang - kafolatlangan durang bilan o'ynash, yutqizish xavfi yo'q o'yin-agar kerak bo'lsa.

Debyut-shaxmat kurashining boshlanishi. Debyutning asosiy vazifasi sipohlarning erta rivojlanishi.

Demarkatsiya liniyasi - shaxmat taxtasini ikkita teng qismga ajratadigan shartli chiziq; to'rtinchi va beshinchi gorizontal chiziq o'rtasida o'tkaziladi.

Devor - piyodalardan zanjir.

Diagonal - bitta rangga ega va bir qatorda joylashgan shaxmat maydonining xonalari.

Durang - shaxmat musobaqasining natijasi, unda g'olib aniqlanmadi. Bunday holda, har bir shaxmatchi yarim ball oladi.

Endshpil - shaxmat o'yinining yakuniy qismi.

Favqulodda vaziyat - muayyan holatlar natijasidagi majburiy harakat.

Ferz tomoni - bu partiyaning boshida(a,b,c) farzin tomoniga mos ravishda yaqinroq bo'lgan maydonning tomoni.

Fianketto (fianketing)– shaxmat atamasi, ya'ni filni piyodalardan tayyorlangan uyning himoyasi ostida eng uzun diagonalga olib chiqishni anglatadi (masalan, a7, b6 va c7 piyodalari yonidagi fil b7).

Fireworks - kombinatsion o'yin davomida bir nechta ketma-ket qurbonlardir.

Fisher soatlari - bu harakatni amalga oshirgandan so'ng bir necha soniyani maxsus tarzda qo'shadigan qurilma. Shunday qilib, muvaffaqiyatli o'yin bo'lsa, o'zingizni ko'rsatish uchun qo'shimcha vaqt to'playsiz.

Fisherning fillari - ispancha yoki sitsiliyancha himoyada faol mavqeyga ega bo'lgan oq rangli fil.

Fork - shaxmatdagi harakat bo'lib, o'yin natijada jang ostida raqibning ikki yoki undan ortiq sipohi bo'ladi.

Gambit - bu debyutdagi o'zgarishlaridan biri, bunda sipoh yoki piyoda rivojlanish afzalligi uchun qurbon qilinadi.

Gorizontal - bir xil sipohli indeksga ega bo'lgan (birinchi va sakkizinchi) shaxmat taxtasi maydonlarining chizig'i.

Harakat - bu sipohning o'rnini o'zgartirish.

Harakatni ko'tarish (fikr) – pozitsiyada aniq, noaniq yechim topish.

Houdini - dunyodagi eng kuchli shaxmat harakatlaridan biri bo'lib, u kompyuter dasturlari – Rybka orasida hozirgi chempionni mag'lub etdi.

Hujum - atama ikki ma'noga ega. Taktik jihatdan raqibning har qanday sipohiga hujum qilish demakdir. Strategiya har qanday qanotda (yoki butun maydonda) hujumni nazarda tutadi.

Ispan debyuti - partiya quyidagi tarzda ijro etiladi: e4 e5 2. Nf3 Nc6 3. Bb5.

Italiyancha debyuti - partiya quyidagi tarzda ijro etiladi: e4 e5 2.Nf3 Nc6 3.Bc4 Bc5.

Izolyator - izolyatsiya qilingan piyoda-qo'shni vertikalarda boshqa piyodalarni qo'llab-quvvatlamaydigan piyoda.

Jiddiy sipoh - mutaxassislar jiddiy sipohlarga farzin yoki ruhni kiritadilar. Bu shohning qo'llab-quvvatlashi bilan raqibga mat berishi mumkin bo'lgan yengil sipohdan farq qiladi.

Kombinator - o'yin davomida turli kombinatsiyalar bilan mohirlik bilan boshqariladigan shaxmatchi.

Kombinatsiya - bu kontseptsianing ta'rifi, shuningdek, Botvinnik tomonidan berilgan, bu atama ostida jabrlanuvchi bilan o'yinning takomillashtirilgan versiyasini nazarda tutgan.

Komodo - shaxmat duelini tahlil qilishga yordam beradigan eng kuchli kompyuter dasturlaridan biri.

Konoval - o'z muvaffaqiyatli ijro etgan shaxmatchi.

Kritter (Crittter) – eng kuchli analitik shaxmat modullaridan biri.

Kutish harakati - raqibni har qanday strategik harakatlar qilishga majbur qilish uchun mo'ljallangan harakat, bu o'yin davomida hech qanday ahamiyatga ega emas. Kutish harakati maydondagi vaziyatni tubdan o'zgartirmaydi va raqibning niyatlarini yanada kengaytirish uchun amalga oshiriladi.

Ladeynik - asosiy rolni ruhlar tomonidan ijro etiladigan partiyaning oxiri.

Laving - o'yin uslubi, raqibni keskinlikda ushlab turganda, partiyaning oxirigacha haqiqiy niyatlarini ko'rsatmaslik.

Lavozim - o'yin davomida yoki shaxmat eskizlari kontekstida maydondagi sipohlarning pozitsiyasi. Maydondagi pozitsiyalarni tanqidiy baholash qobiliyati o'yinchi o'yinda g'alaba qozonishiga imkon beradi.

Legalning mati - farzin qurbon bo'lgan matli holat. Mat uchta yengil shaklga ega. Amalda bu shunday amalga oshiriladi: e4 e5 2.Kf3 d6 3.Cc4 Cg4 4.Kc3 h6 5.K:e5! C:d1?? 6.C:f7+ Kpe7 7.Kd5x. birinchi marta bunday mat 1787 yilda Parijda Kerimor Ser de Legalni qo'ydi. Uning ismi bu kombinatsiya.

Maqsad - shaxmat taxtasi yoki uning ustida turgan sipoh, bu hujum yoki kombinatsiyaning asosiy maqsadi.

Mat - shaxmat shohi kisht ostida bo'lgan va undan qochib qutula olmaydigan holat.

Materiallar - shaxmat o'yinida o'yinchi tomonidan boshqariladigan piyodalar va sipohlar. Qo'shimcha materiallarga ega bo'lish afzalliklarga ega.

Maymun o'yini - bu o'yinchilarning biri raqibning harakatlarini bir xil tarzda takrorlagan holda, partiyaning harakatlari ketma-ketligi.

Miniatyuralar - bu atamaning ikkita talqini mavjud. Birinchisi: boshida allaqachon g'olib bo'lgan o'yin. Ikkinchisi: shaxmat o'yinida vazifa, faqat ma'lum miqdordagi sipohlardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Ochiq chiziq - butun vertikal, hech qanday piyoda bo'lmagan chiziq.

Ochiq debyutlar - e4 va e5 harakatlarida yuzaga keladigan o'yindagi vaziyat. Bunday taktika ochiq o'yinlarga olib kelishi mumkin.

Ochiq o'yin - bu ochiq liniyalardagi harakatlarni qo'llash, muayyan sipohlarning amaliy oralig'ini qo'llash orqali asosan taktik vositalardan foydalanishga imkon beruvchi taktika.

Ochiq partiya - chempionatda yoki turnirda o'tkazilmaydigan o'yin.

Oldini olish - o'yinchi o'z sipohlariga tahdidlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun choralar ko'radi.

Optsiyani yopish (ko'mish) – ilgari to'g'ri deb hisoblangan birinchi variantni rad etish.

Oraliq harakat - bu aniq foyda keltirmaydigan, ammo o'yinchi uchun muhim taktik afzalliklarga ega bo'lgan harakat. Misol uchun, tez-tez, bir sipoh bo'lish o'rniga, oraliq shoh amalga oshiriladi, raqib shohini o'rnini o'zgartirishga majbur qiladi.

O'rim-yig'im - hujumkor o'yinchining o'yinda katta afzalliklarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan harakat algoritmi.

Orqa piyoda – boshqa piyoda yonida vertikal ravishda qafasni ushlab tura olmaydigan piyoda.

Osilgan piyodalar - qo'shni piyodalarni qo'llab-quvvatlamaydigan markazda joylashgan ikkita bog'langan piyoda.

Ot - shaxmat figurasi-ot.

Outpost - raqib hududiga joylashtirilgan sipoh, ko'pincha bu ot. Piyoda uni himoya qiladi.

O'yin boshida bolalar uchun mat – mat, bu ko'pincha yangi boshlanuvchilar (bolalar) bilan sodir bo'ladi. Ushbu mat ikki sipoh – f2 (qora uchun f7) maydonida fil va farzin bilan bo'ladi.

O'yin rejasi - o'yinchi ishlab chiqaradigan muayyan strategiya, o'yin boshida dinamik o'zgarishlarni tahlil qilish, maydonda sipohlarni qayta tashkil etish va muayyan harakatlarning maqsadga muvofiqligi. O'yin rejasi odatda o'yinning barcha qismlari uchun muayyan niyatlarni o'z ichiga oladi.

O'yinni murakkablashtirish uchun qilingan pozitsiyani burish - aniq bo'lmasligi yoki hatto muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Ushbu taktika blitsda yoki raqibning vaqtidagi jiddiy partiyada qo'llaniladi.

O'zgarish - bu kontsepsiya bir harakatni yoki bir vaqtning o'zida bir nechta narsani anglatadi, natijada taxminan teng miqdordagi almashinuvlar mavjud bo'ladi.

Partiyani kechiktirish - partiyada kurashni davom ettirish imkoniyati bilan to'xtatib qo'yilgan hol. Bunday holda, navbatdagi o'yinchi o'z kombinatsiyasini

yozib, konvertga yopishtirishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday partiyani tahlil qilish mumkin, ammo uchinchi tomon mutaxassislarining yordami butunlay chiqarib tashlanadi. Ushbu protsedura kompyuter dasturlari juda keng tarqalgan bo'lgunga qadar ishlatilgan. Bugungi kunda, agar partiya bir kunda boshlangan bo'lsa, o'sha kuni tugaydi.

Pistirma - uzoq masofali sipoh (uning yoki boshqalarning) orqasida joylashgan taxtada joylashgan joy. Bunday sipohning ta'siri faqat uning oldida turgan harakatni amalga oshirgandan keyin amal qiladi.

Piyoda - shaxmat o'yinining jangovar birligi bo'lib, u bilan siz ma'lum bir sipohning kuchini o'lchashingiz mumkin (yengil sipoh – uchta piyoda, ruh – beshta piyoda va farzin beshta piyodaga teng).

Plastunlar - maydonning turli burchaklarida harakat qiladigan farzin bo'lishga intiladigan piyodalar.

Qanot – f, g, h yoki a, b, c vertikalida joylashgan shaxmat maydonining chekkasi.

Qapqan - bu kuchli shaklning yo'qolishiga olib keladigan tuzoq.

Qaramasdan o'ynash - shaxmat namoyishining bir turi bo'lib, unda shaxmatchilar taxtaga qaramasdan o'z harakatlarini amalga oshiradilar. Yaqinda qaramasdan o'yin ba'zi xalqaro shaxmat turnirlarining bir qismiga aylandi (masalan, "Amber turniri"). Ushbu turnir davomida shaxmatchilar kompyuter ekranida bo'sh shaxmat taxtasi rasmidan foydalanish huquqiga ega.

Qarshi o'yin - shaxmatning dastlabki bosqichlaridan biri, raqib kabi o'ynab, raqibning harakatlariga qarshi kurashish uchun sipohni qurbon qilish.

Rentgen - shaxmat terminologiyasida bu so'z raqib sipohiga ta'sir qilishning uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatadi.

Reyting – shaxmatchining haqiqiy bahosidir, uning asosiy ko'rsatkichi kuch faktoridir. Shaxmatchilarni baholashning bunday usuli 1972da amerikalik fizik Eloarpad tomonidan taklif qilingan. Shunday qilib, grossmeyster kamida 2500 ta, xalqaro sport ustasi– 2400dan va shaxmat federatsiyasi ustasi-2300 ta reytingga ega bo'lishi kerak.

Roller - pozitsiyadan qat'i nazar, g'alaba qozonishga harakat qilish.

Sayyohlar - mavjud kontseptsiyaning ikkita talqini ham mavjud. Birinchisi: havaskor o'yinchilar, ular fora sifatida o'ynashni boshladilar. Ikkinchisi: chempionatda ishtirok etadigan va unvonga ega bo'lmagan shaxmatchilar. Ushbu atama birinchi marta 1999 yilda Garri Kasparov tomonidan ishlatilgan.

Schvindell - kichik kombinatsiya natijasida paydo bo'lgan keskin zarba.

Shaxmat dasturi - kompyuter yoki portativ qurilmaga o'rnatilgan dastur. Ushbu dasturlar sohadagi vaziyatni baholashi va har bir vaziyatda harakat qilish uchun maqbul variantlarni taklif qilishi mumkin. Bunday dasturlar jahon miqyosidagi chempionatlarga tayyorgarlik ko'rishda ishlatilishi mumkin, chunki ularning eng yaxshisi jahon grossmeysterlari darajasida o'ynaydi.

Shaxmat eskizlari - shaxmatda juda yaxshi o'ylangan va amalga oshirilgan kombinatsiyadir, natijada siz kerakli maqsadga erishishingiz mumkin bo'lgan yagona natijadir.

Shaxmat estetikasi - shaxmat o'yini o'yinchiga axloqiy va estetik zavq bag'ishlaydi.

Shaxmat figurasi - piyodadan tashqari o'yinda ishtirok etadigan barcha sipohlardir.

Shaxmat kompozitsiyasi - shaxmat san'ati sohasi bo'lib, unda shaxmatchilar rassomlar sifatida faoliyat yuritib, ajoyib pozitsiyalarni, noyob go'zallikka ega texnikani shakllantiradilar.

Shaxmat malakasi - shaxmatchining o'yinda kuchini namoyish etish uchun yaratilgan rasmiy bitiruv. Shaxmat bo'yicha malakani maxsus nomlar yordamida tuzatish mumkin. Shaxmat kategoriyasi nafaqat o'yinchi, balki shaxmat bastakori ham bo'lishi mumkin.

Shaxmat nazariyasi – shaxmat sohasi bo'lib, o'yinni tahlil qilish, o'yinning har bir bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan amaldagi naqshlarni aniqlash.

Shaxmat soatlari - ikkita kadrda ega bo'lgan maxsus soat va vaqt o'lchagichi. Ular vaqtni o'ylaydigan kishi uchun ketadigan tarzda tashkil etiladi. Vaqt juda oz

bo'lsa, vaqt tugashi mumkin va agar u to'liq tugagan bo'lsa, unda vaqt o'tishi bilan kechikish yuz berdi va siz yo'qotishlarni hisoblashingiz mumkin.

Shaxmat strategiyasi - o'yinchi fikricha, uni g'alaba qozonishi kerak bo'lgan o'ylangan reja.

Shaxmat taktikasi - o'yinni o'ynashga olib keladigan bir nechta tasdiqlangan kombinatsiyalardan iborat harakatlar tizimi. Bunga bir vaqtning o'zida bir nechta standart variant – raqibni tuzoqqa jalb qilish, himoyani yo'q qilish yoki asosiy sipohlardan chalg'itishi mumkin.

Shaxmat taxtasi – 64 kvadratdan (8x8) tashkil topgan maydon, ular navbat bilan joylashtirilgan: qora kvadratlar oqlari bilan almashtiriladi.

Shoh (kisht) - shohning raqib sipohlaridan birining hujumi ostida bo'lgan o'yin holati.

Shredder - shaxmat o'yinlarini tahlil qilish bo'yicha eng kuchli dasturlardan biri.

Shvedlar - bu o'yinning qiziqarli turi bo'lib, unda olingan sipohlar raqibga beriladi va u keyingi harakat o'rniga ularni ushbu partiyada ishlatishi mumkin.

Sifat - otni otdan yoki fildan ajratib turadigan farq; sifatni yutib olish yoki yo'qotish-ruhni yengil sipohga (yoki aksincha) almashtirish demakdir.

Sipohlarning qiymati - partiyaning har bir shaxmat sipohining vazni. Ushbu kontsepsiya mutlaq yoki nisbiy bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar baholashning mutlaq tomonini ko'rib chiqsak, unda siz ikkita piyodani taqqoslashingiz mumkin.

Tahdid - vaziyatning kuchayishi bilan raqibning materiallariga hujum qilish.

Tashabbus - faol o'yinchining passiv tomonni himoya qiluvchi o'yinning tezligi va uslubiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati. Ushbu tashabbus muayyan o'yin harakatlarini qo'llashga yordam beradi.

Temp - bu kontsepsiyaning ikkita o'zgarishi mavjud. Birinchisi: alohida harakat, natijada vaqt yo'qoladi. Ikkinchisi: o'yinning ritmi.

Teshik - shaxmat taxtasining zaiflashtirilgan maydoni.

Tez shaxmat (Rapid) – o'yinchilarning harakatlar haqida o'ylash uchun (odatda, 25 dan 30 daqiqagacha) cheklangan vaqt chegarasiga ega bo'lgan o'yin ichida.

Turnir - shaxmat qarama-qarshilikining bir turi bo'lib, unda bir nechta ishtirokchilar bir-biri bilan o'ynashadi.

Turnir jadvali - o'yinchilarning hozirgi holatini va yakuniy natijani ko'rsatadigan xulosali hujjat.

Uchta natija uchun o'yin – to'satdan vaziyat, uning rivojlanishi davomida mutlaqo kutilmagan natija olish mumkin.

Ustun- + - deb belgilangan partiyada muhim afzallik. Kim g'alaba qozonganiga qarab, u + - yoziladi va aksincha - + yo'qotadi. Ushbu belgi Yugoslaviya mutaxassisi tomonidan kiritilgan.

Ustunlik – shaxmat o'yinchilaridan biri asosiy maydonlarni mutlaq nazorat qilishi, shuningdek, o'yin maydonlarida katta afzalliklarga ega bo'lgan o'yindagi pozitsiya.

Uxlab qolish - uzoq vaqt davomida o'ylash.

Uzoq masofali sipoh – fil, ruh va farzin.

Variantni ko'mish - debyut o'yinida ma'lum bir to'g'ri variantni ishlatishdan bosh tortish. Bu shu atama tahlilni partiyalardan birining foydasiga qat'iy baholashga olib kelish uchun ishlatiladi.

Vertikal - bir xil alifbo indeksiga ega bo'lgan sakkizta shaxmat chizig'i (a, b, c, d, e, f, g, h).

Yalang'och shoh - boshqa sipohlarni himoya qilmaydigan shohdir.

Yengil sipoh - bu ibora fil yoki ot ga ataladi.

Yirtqich sipoh - patga erishish uchun bir necha marta qurbon qilingan sipoh. Ko'pincha, bu ruh bo'ladi.

Zaharlangan piyoda - yashirin tarzda himoyalangan o'yin piyodasi. Agar siz uni qabul qilsangiz, raqibning hujumi ostida o'z pozitsiyangizni kuchli tarzda almashtirishingiz mumkin.

Zaif maydon - o'yinchilarning birida, ayniqsa hujumga moyil bo'lgan joy.

SHAXMATDAN TEST SAVOLLARI

1.Shaxmat o'ynining Vatani qayer?

- a) Hindiston
- b) Misr
- c) Xitoy
- d) Eron

2.O'zbekistonlik birinchi grossmeyster kim?

- a) G.Agzamov
- b) A.Filipov
- c) R.Qosimjonov
- d) G.Kasparov

3.Aql gimnastikasi bu - ...

- a) shaxmat
- b) shashka
- c) Matematika
- d) Fizika

4.O'zbekistonlik birinchi ayol grossmeyster kim?

- a) N.Mo'minova
- b) H.Tojibayeva
- c) N.Yaqubbayeva
- d) J.Sindarov

5.Javohir Sindarov eng yosh grossmeysterlar orasida jahonda nechanchi o'rinda turadi?

- a) 2
- b) 3
- c) 1

d) 4

6.Shaxmat federatsiyasining xalqaro nomi nima?

- a) FIDE
- b) FICHE
- c) FIBE
- d) FIFA

7.Grossmeyster unvoni qaysi sport turida beriladi?

- a) Shaxmat
- b) Hakkey
- c) Shashka
- d) Badminton

8.Shaxmatda nechta dona bo'ladi?

- a) 32
- b) 36

c) 34
d) 30
**9.O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.Mirziyoyev
tamonidan "O'zbekiston
Respublikasida shaxmatni
rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida"gi
qarori qachon chiqdi?**

- a) 09.08.2018
- b) 08.09.2018
- c) 07.08.2017
- d) 08.10.2019

**10.O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.Mirziyoyev
tamonidan "O'zbekiston
Respublikasida shaxmatni
rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida"gi
qarori nechanchi sonli?**

- a) 3906
- b) 3806
- c) 3606
- d) 3808

**11.Qaysi o'yinda otlar va fillar ham
bo'ladi?**

- a) shaxmat
- b) shashka
- c) shaxmat va shashka
- d) damino

**12.Xalqaro shaxmat
fedreatsiyasining shiori nima?**

- a) Biz bir oilamiz
- b) Shaxmat hamma uchun
- c) Doimo yuqoriga harakat qil
- d) Doimo olg'a

**13.Butun umr shaxmat bo'yicha
champion bo'lgan grossmeystri
kim?**

- A.Alexin
- R.Qosimjonov
- A.Fillipov
- G.Kasparov

**14.FIDE qachon va qaysi shaxarda
tashkil qilindi?**

- a) 20-iyul 1924 yil Parij
- b) 20-iyun 1925 yil London
- c) 20-iyul 1925 yil Parij
- d) 20-iyul 1926 yil Parij

**15.Shaxmatda nechta kishi
o'ynaydi?**

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 1

**16.Shaxmat doskasida nechta katak
bor?**

- a) 64
- b) 62
- c) 60

d)54

17.Burchakda qaysi dona turadi?

- a) Ruh
- b) Fil
- c) Ot
- d) Farzin

18.Shaxmat taxtasida nechta goriznatal yo'laklar bor?

- a) 8
- b) 6
- c) 10
- d)12

19.Shaxmat taxtasida nechta vertikal yo'laklar bor?

- a) 8
- b) 6
- c) 10
- d) 12

20.Shaxmat taxtasida nechta oq katak bor?

- a) 32
- b) 30
- c) 64
- d) 24

21.Shaxmatda nechta qora katak bor?

- a) 32
- b) 30
- c) 64
- d) 24

22.Shaxmat taxtasining e1 va e8 xonalarida qaysi sipoh turadi?

- a) Shoh
- b) Farzin
- c) Fil
- d) Ot

23.Shaxmat o'yinidagi asosiy maqsad nima?

- a) shohni mot qilish
- b) barcha kataklarni egallash
- c) donalarni tezroq urib olish
- d) farzinni yutib olish

24.Quyidagi xato yozilgan javobni toping.

- a) K6e
- b) Kc6
- c) Kf5
- d) Ka4

25.d8 xonasida qaysi dona joylashadi?

- a) qora farzin
- b) qora shoh
- c) oq farzin
- d) oq ot

26.Qaysi shaxmat sipohi yozilganda faqat kataklar yoziladi?

- a) Piyoda
- b) Ot
- c) Fil
- d) Shoh

27.Inglizcha nomi Bishop bo'lgan sipoh bu - ...

- a) Fil
- b) Piyoda
- c) Ot
- d) Ruh

28.Inglizcha qisqartma belgisi "N" bo'lan sipoh qaysi?

- a) Ot
- b) Fil
- c) Ruh
- d) Farzin

29.Ruscha qisqartma belgisi "J" bo'lgan sipoh nomi qaysi?

- a) Ruh
- b) Fil
- c) Ot
- d) Piyoda

30.Shohning o'ng tarafida qaysi sipoh turadi?

- a) Fil
- b) Ot
- c) Farzin
- d) Piyoda

31.Shaxmat taxtasidagi markaziy xonalarni aniqlang.

- a) d5,e5,d4,e4
- b) d5,f5,e5,c5
- c) a6,d5,e5,f6
- d) a2,b4,c5,e5

32.Shaxmat alifbesi yordamida nimani aniqlash mumkin?

- a) o'yin pozitsiyasini
- b) qaysi tomon mot bo'lishini
- c) o'yindagi donlar sonini
- d) keying yurishlarni

33.Oqlarning fillari qaysi kataklarda turadi?

- a) c1,f1
- b) c1,d1
- c) d1,g1
- d) b1,d1

34.To'g'ri yozilgan javobni toping.

- a) Kph1
- b) Kpe9
- c) Kps5
- d) Kp6e

35.Shaxmat taxtasida chapdan o'ngga boradigan tomon qanday ataladi?

- a) Gorizantal
- b) Dioganal
- c) Vertikal
- d) To'g'ri maydon

36.Shaxmat taxtasida raqib tamonga boradigan tamon qanday ataladi?

- a) Vertikal
- b) Gorizantal
- c) Dioganal

d) Yuqori maydon

37.h1 xonasida qaysi sipoh turadi?

a) JI

b) K

c) C

d) Kp

38.Yettinchi gorizantalda qaysi sipoh turadi?

a) qora piyoda

b) oq piyoda

c) ruh

d) fil

39.Qoralarning otlari turgan xonalarni toping.

a) b8,g8

b) b8,f8

c) b8,d8

d) f4,b8

40.Oq farzin qaysi xonada turadi?

a) d1

b) b1

c) c1

d) e1

41.Notog'ri yozilgan javobni toping.

a) $\Phi 6g$

b) $\Phi g6$

c) $\Phi c6$

d) $\Phi e6$

42.Ikkala tarafda nechtadan piyodalar bo'ladi?

a) 8

b) 6

c) 10

d) 12

43.Eng uzun dioganalni belgilang.

a) h1-a8

b) a2-h8

c) a1-h7

d) h1-h8

44.Eng qisqa dioganalni belgilang.

a) g1-h2

b) g1-g2

c) c2-e4

d) c2-h6

45.Inglizcha "Q" qisqartmali sipoh qaysi xonalarda turadi?

a) d1,d8

b) e1,e8

c) d1,e8

d) g1,g8

46.Qaysi sipoh gorizantal va vertikal yo'llardan harakatlanadi?

a) Ruh

b) Farzin

c) Fil

d) Ot

47.Fil qaysi yo'nalishda harakatlanadi?

a) diaganal

b) vertikal

c) gorizantal

d) to'g'ri chiziq bilan

48.Eng kuchli sipoh qaysi?

a) farzin

b) ruh

c) shoh

d) fil

49.Eng kuchsiz sipoh qaysi?

a) piyoda

b) shoh

c) fil

d) ot

50.Farzin ko'pi bilan nechta xonaga yura oladi?

a) 27

b) 30

c) 28

d) 26

51.Ot burchakda turganda nechta xonaga yura oladi?

a) 2

b) 3

c) 1

d) 4

52.Qaysi sipohlarning kuchlari teng hisoblanadi?

a) ot va fil

b) ikkita fil va ruh

c) ikkita ot va ruh

d) fil va ruh

53.Taxtada donalar ko'p bo'lsa, ...

a) sipohlarning yurish imkonlari kamayadi

b) vaziyat barqaror bo'ladi

c) sipohlarning yurish imkonlari ko'payadi

d) tezda o'yin tugaydi

54.Qaysi sipoh istalgan tomondaga bir xona yura oladi?

a) Shoh

b) Ruh

c) Piyoda

d) Ot

55.Qaysi sipoh o'z donalari va raqib donalari ustidan ham sakrab o'ta oladi?

a) Ot

b) Farzin

c) Ruh

d) Fil

56.Ot ko'pi bilan nechta xonaga yura oladi?

a) 8

b) 7

c) 6

d) 5

57.Kuchlar ketma-ketligini aniqlang.

a) $\Phi > \text{JI} > \text{K} = \text{C}$

b) $\text{JI} > \Phi > \text{K} = \text{C}$

c) $\Phi > K > \Pi = C$

d) $C > \Phi > K = \Pi$

58. Qaysi sipohlar gorizantal yo'laklardan yura oladi?

a) farzin, ruh,

b) ruh, fil, farzin

c) farzin, ruh, ot

d) ruh, fil,

59. O'yin davomida ot va filning kuchi har doim teng bo'ladi?

a) pozitsiyaga bog'liq bo'ladi

b) faqat o'yin boshida teng bo'ladi

c) faqat o'yin ohirida teng bo'ladi

d) doimo teng bo'ladi

60. Ruh bo'sh xonada turganda nechta xonaga yura oladi?

a) 14

b) 12

c) 16

d) 18

61. Agarda birorta dona navbatdagi yurishi bilan raqib shohini uradigan holatda bo'lsa, bu holatga nima deyiladi?

a) kisht

b) shohga hujum

c) yurish

d) farzinga hujum

62. Shohning kishtdan qutilishining nechta yo'li bo'ladi?

a) 3

b) 2

c) 1

d) 4

63. Ikkiyoqlama kishtda qanday yurish qilinadi?

a) shohi boshqa xonaga yuriladi

b) kisht bergan sipoh urib tashaladi

c) shohning oldi to'siladi

d) shoh mot bo'ladi

64. Diaganallar deb nimaga aytiladi?

a) bir xil rangdagi xonalarni tutashtiruvchi liniyalar

b) raqamlar bilan belgilangan yo'laklar

c) harflar bilan belgilangan yo'laklar

d) qora rangdagi honalar

65. Oppazitsiya nima?


a) ikkala shohni bir xona ajratib tursa

b) ikkala shohni ikki xona ajratib tursa

c) ikki shoh yonma yon tursa

d) ikki shohni uch xona ajratib tursa

66. Quyidagi pozitsiyada oqlarning to'g'ri yurishini toping.



- a) filning d5 dagi piyodani urishi
- b) a5 piyodasining surilishi
- c) shohning yurishi
- d) filning b7 ga yurishi

67. Mot nima?

- a) kishtdan qutilishning iloji yo'qligi
- b) kisht berilishi
- c) shohning burchakka siqilishi
- d) farzin bilan kisht berish

68. Qaysi sipohlar kishtidan shohni yurib yoki ularni urib tashlash bilan qutilish mumkin?

- a) ot va piyoda
- b) ot va fil
- c) piyoda va farzin
- d) farzin va ot


69. Quyidagilardan eng muhimini aniqlang?

- a) vaziyatga bog'liq bo'ladi
- b) farzinni surish
- c) piyodani surish
- d) oppazitsiyani egallash

70. Quyidagilardan qaysi biri majburiy?

- a) kishtdan qutilish
- b) shohni yuirsh
- c) farzinga chiqish
- d) farzinga chiqish

71. Quyidagi pozitsiyada oqlarning to'g'ri yurishini toping.



- a) otning g3 xonasiga yurishi
- b) filning f4 xonasiga yurishi
- c) piyodaning g4 xonasiga yurishi
- d) piyodaning c3 xonasiga yurishi

72. Agar o'yin vaqtida shohlardan biriga kisht berilib turgani aniqlansa, ...

o'zaro kelishiladi.

- a) o'yinni boshidan boshlab o'ynash zarur bo'ladi.
- b) oqlar yutgan hisoblanadi
- c) qoralar yutgan hisoblanadi

73. Qaysi sipoh gorizantal yoki vertikal yo'nalishda harakatlanmaydi?

- a) ot va fil
- b) ot va piyoda
- c) ot va farzin

d) shoh va fil

74. Algebrik notatsiya nima?

a) sipohlarning shaxmat taxtasida joylashishi

b) shaxmat taxtasidagi gorizantal chiqizlarga joylashgan sipohlar

c) shaxmat taxtasidagi gorizantal va vertikal xonalarda joylashgan sipohlar

d) shaxmat taxtasidagi vertikal xonalarda joylashgan sipohlar

75. Ruhlar qaysi vertikalda joylashadi?

a) a va h

b) b va g

c) a va g

d) a va b

76. Durang nima?

a) o'yinda hech bir tamonning yuta olmasligi

b) tamonlarda bittadan piyodalarning qolishi

c) har ikkala tarafda bittadan sipohlarning qolishi

d) shohni hech qayerga yura olmaslik

77. O'ynovchilardan birining yurishi kerak, uning shohiga kisht berilmagan, lekin uning yurishi uchun shohiga ham, boshqa donalariga ham yo'l yo'q – ana shunday ahvolga nima deyiladi?

a) Pat

b) Durang

c) Mot

d) Qoralar yutgan bo'ladi

78. Shaxmat taxtasida nechta qator xona mavjud?

a) 8

b) 6

c) 4

d) 7

79. Shaxmatchi partiyani boy berish fikrini qanday ifodalaydi?

a) shohni shaxmat taxtasiga yotqizib qo'yib

b) o'ng qo'lini baland ko'tarib

c) farzinni shaxmat taxtasiga yotqizib qo'yib

d) o'yindan chiqib ketib

80. Piyodaning qiymati nechtaga teng?

a) 1

b) 3

c) 5

d) 4

81. Shohning qiymati nechtaga teng?

a) Qiymatsiz

b) 10

c) 20

d) 15

82. Otning qiymati nechtaga teng?

- a) 3
- b) 5
- c) 7
- d) 9

83. Filning qiymati nechaga teng?

- a) 3
- b) 5
- c) 7
- d) 9

84. Ruhning qiymati nechaga teng?

- a) 5
- b) 7
- c) 9
- d) 6

85. Farzinning qiymati nechaga teng?

- a) 9
- b) 7
- c) 8
- d) 6

86. Shaxmat donalarining jami qiymati nechaga teng?

- a) 39
- b) 40
- c) 45
- d) 43

87. Shaxmat natatsiyasida otni qanday harflar bilan belgilanadi?

- a) K
- b) C

- c) F
- d) U

88. Shaxmat notatsiyasida shohni qanday harflar bilan belgilanadi?

- a) Kp
- b) K
- c) C
- d) L

89. Shaxmat notatsiyasida filni qanday harflar bilan belgilanadi?

- a) C
- b) K
- c) L
- d) U

90. Teng vaziyat ko'proq qanday natijaga olib kelishi mumkin?

- a) durangga
- b) oqlarning g'alabasiga
- c) potga
- d) qoralarning g'alabasiga

91. Birvarakayiga ikki sipohni yurish mumkinmi?

- a) faqat ayrim vaziyatlarda
- b) yo'q
- c) ha
- d) fil bilan otni yurish mumkin

92. Rakirovka nima?

- a) birvarakayiga shoh va ruhni yurishi
- b) farzin va ruhni birvarakayiga yurishi

c) shoh va piyodani birvarakayiga yurishi

d) shoh va otni birvarakayiga yurishi

93.Rakirovka vaqtida shoh va ruh o'rtasida qaysi sipoh bo'ladi?

a) hech qanday sipoh bo'lmaydi

b) ot va fil

c) farzin

d) ot

94.Kisht berganda rokirovka qilish mumkinmi?

a) yo'q

b) ha

c) shoh boshqa xonaga yurib qaytmagan bo'lsa

d) shoh yurmagan bo'lsa

95.Rokirovka shoh tamondagi ruh bilan qilinsa – bunga nima deyiladi?

a) qisqa rakirovka

b) uzun rakirovka

c) tezkor rokirovka

d) baland rakirovka

96.Rokirovka farzin tamondagi ruh bilan qilinsa – bunga nima deyiladi?

a) uzun rakirovka

b) qisqa rakirovka

c) tezkor rokirovka

d) baland rakirovka

97.Quyidagi qaysi hollarda rakirovka qilish mumkin?

a) rokirovkaga qadar shoh ham, ruh ham o'z joyidan siljiltilmagan bo'lsa

b) rakirovkaga qadar shoh o'z joyidan siljiltilmagan bo'lsa

c) rakirovkaga qadar ruh o'z joyidan siljiltilmagan bo'lsa

d) rakirovkaga qadar ruh va shoh siljib ya'na o'z joyiga qaytgan bo'lsa

98.Quyidagi qaysi hollarda rakirovka qilish mumkin?

a) rakirovkadan keyin shoh kishtga duch kelmagan bo'lganda

b) rakirovkadan keyin shoh kishtga duch kelgan bo'lganda

c) rakirovkadan keyin ruh hujumga uchramaydigan bo'lsa

d) rakirovkadan keyin ruh hujumga uchraydigan bo'lsa

99.Qisqa rakirovkada shoh qaysi xonaga sakraydi?

a) g1, g8

b) h1, h8

c) f1, f8

d) d1, d8

100.Uzun rakirovkada shoh qaysi xonaga sakraydi?

a) c1, c8

b) b1, b8

c) d1, d8

d) d1, b1

101. Quyidagi qaysi hollarda rakirovka qilish mumkin?

a) shoh bilan ruh o'rtasidagi xonalar bo'sh bo'lgan taqdirda

b) shoh bilan ruh o'rtasida bir piyoda bo'lgan taqdirda

c) shoh bilan ruh o'rtasida bir fil bo'lgan taqdirda

d) shoh bilan ruh o'rtasida bir ot bo'lgan taqdirda

102. Agarda rokirovka qilayotgan paytda ruh raqib donasining hujumi ostida bo'lsa yoki ruh hujum qilgan xona orqali o'tadigan bo'lsa, bu hol rakirovka qilish mumkinmi?

a) ha

b) yo'q

c) ba'zi hollarda mumkin

d) farzin bilan hujum qilganda mumkin

103. Rakirovkadan maqsad nima?

a) Shohni tinchroq pozitsiyaga o'tkazadi va ruhni tezroq o'yinga chiqaradi

b) Shohni o'yinga chiqarish uchun

c) Ruhni o'yinga chiqarish uchun

d) Tezroq hujum boshlash uchun

104. O'yin davomida nechta marta rakirovka qilish mumkin?

a) 1

b) 2

c) 3

d) 4

105. Shohga kisht berilgan vaqtda rokirovka qilish mumkinmi?

a) Yo'q

b) Ha

c) Farzin bilan kisht berilsa

d) Ruh bilan kisht berilsa

106. Turnirlarda kim oq donalar bilan o'ynashi qanday aniqlanadi?

a) maxsus jadvallarda yoritiladi

b) qura tashlanadi

c) hakamlar hal qiladi

d) o'zaro kelishiladi

107. Shaxmat taxtasida donaning katak chekkasida turganini to'g'irlab qo'yish mumkinmi?

a) "to'g'irlyman" deb mumkin

b) mumkin emas

c) hakam to'g'irlydi

d) hakam ruhsati bilan mumkin

108. Agar o'ynovchilardan birining navbati kelib yurishi lozim bo'lsa va o'z donasiga qo'lini tekkizsa ...

a) o'sha donani yuradi

b) istagan donasini yuradi

c) hakam ruxsati bilan boshqa donani yuradi

d) raqib ruhsati bilan boshqa donani yurishi mumkin

109. Agar o'ynovchilardan birining navbati kelib yurishi lozim bo'lsa va qo'lini raqibning donasiga tekkizsa ...

a) o'sha donani uradi

b) istagan donasini uradi

c) hakam ruxsati bilan boshqa donani uradi

d) raqib ruxsati bilan boshqa donani uradi

110. Qo'l tekkan donaning yuradigan yo'li bo'lmasa yoki raqibning donasini urib bo'lmasa, istaganini yurishi mumkinmi?

a) ha, faqat hakamdan ogohlantirish oladi

b) yo'q mumkin emas

c) hakamning ruhsati bilan mumkin

d) raqibning ruhsati bilan mumkin

111. Agar o'ynayotgan vaqtda o'yin qoidasiga xilof yurish qilinganligi aniqlansa, ...

a) bu noto'g'ri yurish tuzatiladi va o'yin davom qildiriladi

b) o'yin boshidan boshlanadi

c) hakam noto'g'ri yurgan o'yinchiga mag'lubiyat yozadi

d) o'zaro kelishiladi

112. O'yin boshida donalarning noto'g'ri terilgani aniqlansa, ...

a) o'yin qaytadan o'ynaladi

b) noto'g'ri tergan o'yinchiga mag'lubiyat yoziladi

c) o'yin davom qildiriladi

d) qoralarga yutuq yoziladi

113. O'ynovchilardan biri qoidaga xilof rakirovka qilgan bo'lsa, ...

a) u shoh bilan ruhni ilgarigi joylariga qo'yib, shohi bilan boshqa bir yurishni qilishi lozim

b) u shoh bilan ruhni ilgarigi joylariga qo'yib, ruhi bilan boshqa bir yurishni qilishi lozim

c) hakam o'yindan chetlashtiradi

d) o'yin davom qildiriladi

114. Ikkala taraf ham, o'yinni davom qildirishdan foyda yo'qligini ko'rib, o'yinni durang qilishlari mumkinmi?

a) ha

b) yo'q

c) hakam hal qiladi

d) pot bo'ladi

115. O'ynovchilar bir yurishni takrorlay bersalar...

- a) tamonlardan birining xohishi bilan o'yin durang bo'ladi
- b) ikkala tarafning roziligi bilan durang bo'ladi
- c) hakamning xohishi bilan o'yin durang bo'ladi
- d) motgacha o'yin davom qiladi

116. Agarda 50 marotaba yurilganda o'yinda hech bir dona urilmagan va hech qaysi piyoda surilmagan bo'lsa ...

- a) o'yin during hisoblanadi
- b) ya'na 50 yurish qilish mumkin
- c) hakamning ruhsati bilan o'yinni davom qilidirish mumkin
- d) motgacha o'yin davom qiladi

117. Agar partiya shaxmat soati bilan o'ynalsa va qaysi tamon ma'lum vaqt ichida belgilangan miqdordagi yurishni qilishga ulgurmasa...

- a) unga mag'lubiyat yoziladi
- b) o'yin durang hisoblanadi
- c) hakam o'yinni boshidan boshlaydi
- d) soat boshidan qo'yiladi

118. Oq donalar qaysi garizantalda turadi?

- a) 1,2
- b) 7,8
- c) 3,4

d) 5,6

119. Qora donalar qaysi gorizantalda turadi?

- a) 7,8
- b) 1,2
- c) 3,4
- d) 5,6

120. Qora farzin qaysi xonada turadi?

- a) d8
- b) e8
- c) c8
- d) d1

121. Qaysi sipohning qisqartma nomi yozilmaydi?

- a) Piyoda
- b) Fil
- c) Ot
- d) Shoh

122. Sipohlarning yurishi shaxmat notatsiyada qanday belgilanadi?

- a) -
- b) +
- c) :
- d) =

123. Sipohlarning urishi shaxmat notatsiyada qanday belgilanadi?

- a) :
- b) +
- c) -

d) =

124. Shaxmat notatsiyada kishk qanday belgilanadi?

a) +

b) -

c) :

d) X

125. Shaxmat notatsiyada ikkiyoqlama kishk qanday belgilanadi?

a) ++

b) +

c) -+

d) :+

126. Shaxmat notatsiyada mot qanday belgilanadi?

a) X

b) +

c) -

d) :

127. Qisqa rakirovka qanday belgilanadi?

a) 0-0

b) 0-0-0

c) 0

d) 0-x

128. Uzun rakirovka qanday belgilanadi?

a) 0-0-0

b) 0-0

c) 0+0+0

d) 0-0+0

129. Shaxmat notatsiyada hohlaganini yurish qanday belgilanadi?

a) ~

b) +

c) -

d) X

130. Shaxmat notatsiyada yahshi yurish qanday belgilanadi?

a) !

b) !!

c) ?!

d) !?

131. Shaxmat notatsiyada juda yahshi yurish qanday belgilanadi?

a) !!

b) !

c) ?!

d) ???!

132. Shaxmat notatsiyada kuchsiz (yoki xato) yurish qanday belgilanadi?

a) ?

b) ??

c) !?

d) ?!

133. Shaxmat notatsiyada qo'pol xato yurish qanday belgilanadi?

- a) ??
- b) ?
- c) ?!
- d) !?

134. O'yin baravar vaziyatda qanday belgi ishlatiladi?

- a) =
- b) +
- c) -
- d) :

135. Qaysi sipoh ruscha adabiyotlarda C harfi bilan belgilanadi?

- a) Fil
- b) Ot
- c) Ruh
- d) Farzin

136. Eng qisqa mot necha yurishda amalga oshiriladi?

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 1

137. Yangi o'rganuvchilar dastlab qaysi sipohni o'yinga kiritishga intiladi?

- a) Farzin
- b) Ot
- c) Fil
- d) Piyodalar

138. e2-e4 bu qaysi siphoning yurishi?

- a) Piyoda
- b) Ot
- c) Fil
- d) Shoh

139. $\Phi a5:e5$ bu yerda qanday yurish keltirilgan?

- a) Farzinning olishi
- b) Farzinning yurishi
- c) Farzinning kisht berishi
- d) Filning olishi

140. $\Phi e2:e6+$ Bu yerda qanday vaziyat keltirilgan?

- a) farzinning kishti to'g'ri yurish ekanligi
- b) farzinning yurishi to'g'ri ekanligi
- c) farzinning olishi to'g'ri ekanligi
- d) filning yurishi to'g'ri ekanligi

141. h7-h6? bu yerda qanday vaziyat keltirilgan?

- a) piyodaning yurishi xato ekanligi
- b) piyodaning urishi
- c) piyodaning kishti
- d) piyodaning kishti to'g'ri ekanligi

142. e4:d5 bu yerda qanday vaziyat keltirilgan?

- a) piyodaning urishi
- b) piyodaning kishti
- c) piyodaning yurishi

d) piyodaning farzinga chiqishi

143. Grossmeyster (GM) unvonini kim beradi?

a) FIDE

b) O'zbekiston shaxmat federatsiyasi

c) Osiyo shaxmat uyushmasi

d) Osiyo shaxmat uyushmasi va FIDE

144. IM-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) Xalqaro shaxmat ustasi

b) Xalqaro arbitr (hakam)

c) FIDE shaxmat ustasi

d) Shaxmat ustaligiga nomzod

145. FM-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) FIDE shaxmat ustasi

b) Xalqaro shaxmat ustasi

c) Xalqaro arbitr (hakam)

d) Shaxmat ustaligiga nomzod

146. IA-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) Xalqaro arbitr (hakam)

b) Xalqaro shaxmat ustasi

c) FIDE shaxmat ustasi

d) Shaxmat ustaligiga nomzod

147. WGM-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) ayollar o'rtasida grossmeyster

b) ayollar o'rtasida xalqaro shaxmat ustasi

c) ayollar o'rtasida FIDE shaxmat ustasi

d) ayollar o'rtasida shaxmat ustaligiga nomzod

148. WIM-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) ayollar o'rtasida xalqaro shaxmat ustasi

b) ayollar o'rtasida grossmeyster

c) ayollar o'rtasida FIDE shaxmat ustasi

d) ayollar o'rtasida shaxmat hakami

149. WFM-FIDE tamonidan beriladigan qanday unvon?

a) ayollar o'rtasida grossmeyster

b) ayollar o'rtasida xalqaro shaxmat ustasi

c) ayollar o'rtasida FIDE shaxmat ustasi

d) ayollar o'rtasida grossmeysterchilikka nomzod

150. FIDE ning bosh qarorgohi qayerda joylashgan?

a) Shveysariyada

b) Londonda

c) Parijda

d) Moskvada

151. O'yin ohiri qanday ataladi?

a) Endshipl

b) Mittelshipl

c) Debyut

d) Sutsuvang

152.O'yinning boshlanish qismi qanday ataladi?

a) Debyut

b) Mittelshipl

c) Endshipl

d) Sutsuvang

153.Debyut necha yurishgacha davom qiladi?

a) 15-17

b) 15-25

c) 15-23

d) 20-25

154.O'yinning 15-17 yurishidan keyingi bo'ladigan qismi qanday ataladi?

a) Mittelshipl

b) Endshipl

c) Debyut

d) Seytnot

155.FIDE tarkibiga butun dunyo bo'ylab qancha shaxmatchilar ro'yhatdan o'tgan?

a) 550 mln

b) 570 mln

c) 560 mln

d) 530 mln

156. Tipik mot pozitsiyalari deb nimaga aytiladi?

a) ko'p uchraydigan

b) kam uchraydigan

c) farzin bilan bog'liq bo'lgan mot pozitsiyalariga

d) ruh bilan bog'liq bo'lgan mot pozitsiyalari

156. FIDE tarkibiga qancha milliy federatsiya a'zo?

a) 200 ga yaqin

b) 150 ga yaqin

c) 180 ga yaqin

d) 160 ga yaqin

157. Qaysi sipohni urib olib bo'lmaydi?

a) Shohni

b) Piyodani

c) Farzinni

d) Ruhni

158. Qaysi siphoning yurishi lotin tilidagi L (yoki rus tilidagi Г) harfining chizig'iga o'xshab ketadi?

a) Ot

b) Fil

c) Ruh

d) Farzin

159. Ot markazda turganda qancha xonaga hujum qila oladi?

a) 8

b) 6

c) 10

d) 12

160. Qaysi siphoning yurishidan hujum qilish usuli boshqacha?

- a) Piyoda
- b) Ot
- c) Fil
- d) Farzin

161. Shaxmat taxtasidagi barcha tik chiziqlar bu –

- a) Vertikal chiziqlar
- b) Gorizantal chiziqlar
- c) Diogonal chiziqlar
- d) Yon chiziqlar

162. Oq tomon piyodalari qaysi gorizantal chiziq bo'yicha o'yinga tushadilar?

- a) ikkinchidan boshlab
- b) yettinchidan boshlab
- c) oltinchidan boshlab
- d) uchinchidan boshlab

163. Oq sipohlar qaysi gorizantal chiziq bo'yicha o'yinga tushadilar?

- a) birinchidan boshlab
- b) sakkizinchidan boshlab
- c) ikkinchidan boshlab
- d) uchinchidan boshlab

164. Qora sipohlar qaysi gorizantal chiziq bo'yicha o'yinga tushadilar?

- a) sakkizinchidan boshlab
- b) yettinchidan boshlab

c) birinchidan boshlab

d) ikkinchidan boshlab

165. Fil bilan mot qilish uchun raqibning shohi taxtaning qaysi qismida turishi kerak?

- a) fil rangidagi honada
- b) a yoki h vertikal yo'llarida
- c) markazda
- d) burchaklarda

166. Ot bilan mot qilish uchun raqibning shohi taxtaning asosan qaysi qismida turishi kerak?

- a) o'yindagi vaziyatga bog'liq bo'ladi
- b) a yoki h vertikal yo'llarida
- c) markazda
- d) burchaklarda

167. Bir fil bilan yakka shohni mot qilib bo'ladimi?

- a) yo'q
- b) ha, shoh yordami bilan
- c) ha
- d) vaziyatga bog'liq bo'ladi


168. Bir ot bilan yakka shohni mot qilib bo'ladimi?

- a) yo'q
- b) ha, shoh yordami bilan
- c) ha
- d) vaziyatga bog'liq bo'ladi

169. Yakka ruhning o'zi yakka shohni mot qila oladimi?

- a) ha, shoh yordami bilan
- b) ha
- c) yo'q
- d) vaziyatga bog'liq bo'ladi

170. Ushbu vaziyatda oqlarga qancha yurish beriladi?



- a)50
- b)30
- c)60
- d)40

171. Shohlarning qarama qarshi turish xolati qanday nomlanadi?

- a) Oppazitsiya
- b) Teskari turish xolati
- c) O'zaro hujum xolati
- d) Shoh bilan shohning yonma yon turishi

172. Yakka farzinning o'zi yakka shohni mot qila oladimi?

- a) ha, shoh yordami bilan
- b) yo'q
- c) ha
- d) vaziyatga bog'liq bo'ladi

173. Ikki ruh yakka shohni mot qila oladimi?

- a) Ha
- b) Yo'q
- c) Shoh yordami bilan
- d) Vaziyatga bog'liq bo'ladi

174. Ikki fil yakka shohni mot qila oladimi?

- a) Ha, shoh yordami bilan
- b) Ha
- c) Yo'q
- d) Vaziyatga bog'liq bo'ladi

175. Quyidagilar ichidan yakka shohni mot qilish qiyin bo'lgan sipohlarni tanlang.

- a) bir ot va bir fil bilan
- b) ikki ruh bilan
- c) ikkita fil va ot bilan
- d) farzin bilan

176. Cd3! bu nimani bildiradi?

- a) filning yurishi yahshi yurish
- b) filning urishi yahshi
- c) filning kishti yahshi
- d) otning yurishi yahshi

177. Piyodaning urishi to'g'ri keltirilgan javobni toping.

- a) ab
- b) ac
- c) fb
- d) he

178. Otning olishi to'g'ri keltirilgan javobni toping.

- a) K:f4
- b) Kg6+
- c) Kc4
- d) K:7e

179. Filning yurishi va kishti berilgan javobni toping?

- a) Cc5+
- b) C-c5+
- c) C:c5+
- d) C7e+

180. En passant qaysi sipohga nisbatan qo'llaniladi?

- a) Piyodaga
- b) Shohga
- c) Otga
- d) Farzinga

181. Qaysi siphoning xavfsizligini ta'minlash maqsadida rakirovka amalga oshiriladi?

- a) Shohni
- b) Ruhni
- c) Otni
- d) Filni

182. O'yinchining o'z shohiga "kisht" e'lon qilinishidan himoyalovchi qancha ehtimolli usullari mavjud?

- a) 3

- b) 2
- c) 4
- d) 5

183. Quyida keltirilgan qaysi sipoh faqatgina diagonal chiziq bo'yicha yurish qila oladi?

- a) Fil
- b) Farzin
- c) Ot
- d) Ruh

184. Shohga kisht berilgan taqdirda rakirovka qila oladimi?

- a) Yo'q
- b) Ha
- c) Agar piyoda tamonidan kisht berilsa
- d) Agar ruh bilan kisht berilsa

185. Agar oqlarda ikkita piyoda, bitta ot va bitta ruh bo'lsa sipohlarning qiymati qanchaga teng bo'ladi?

- a) 10
- b) 11
- c) 12
- d) 13

186. Pot nima?

- a) yurish navbati kelgan tarafda yurishga yo'l qolmasligi
- b) o'yinda faqat shohlarning qolishi

c) tamonlarda bittadan piyodalarning qolishi

d) tamonlarda bittadan otlarning qolishi

187.Durang nima?

a) o'yinda faqat shohlarning qolishi

b) tamonlarda bittadan piyodaning qolishi

c) yurish navbati kelgan tarafda yurishga yo'l qolmasligi

d) tomonlarda bittadan ruhlarning qolishi

188.Ikki ot bilan yakka shohni mot qilish mumkinmi?

a) raqib shohi noto'g'ri harakat qilsa

b) ha, tezda

c) yo'q

d) shoh markazda joylashsa

189.Shaxmat taxtasida nechta gorizantal yo'laklar mavjud?

a) 8

b) 10

c) 12

d) 6

190.Teng vaziyat ko'proq qanday natijaga olib kelishi mumkin?

a) durang holatiga

b) oqlarning g'alabasiga

c) pot holatiga

d) qoralarning g'alabasiga

191.Shaxmat partiyasi nechta bosqichga bo'linadi?

a) 3

b) 2

c) 4

d) 5

192.Sutsuvang nima?

a) O'zi uchun yomon bo'lgan yurishni qilishga majbur bo'lish

b) O'yin boshi

c) O'yin o'rtasi

d) O'yin yakuni

193.Jang maydonining asosiy nuqtasi qayer?

a) taxtaning markazi

b) 4,5-gorizantallar

c) a,c,g,h vertikalalar

d) 7,8- vertikalalar

194. Debyutning asosiy g'oyasi berilmagan javobni toping?

a) farzinni o'yinga chiqarish

b) markaziy xonalarni egalash

c) o'z sipohlarini mukammallashtirish

d) shoni himoyalangan honaga olib o'tish

195. Piyoda va shohlar qolgan pozitsiyadagi o'yin ohirlari qancha gruppaga bo'linadi?

a) 2

b) 3

c) 4

d) 5

196. Kvadrat qoidasi o'yinning qaysi bosqichida bo'ladi?


a) endshipl

b) mittelshipl

c) debyut

d) debyut va endshipl

197. Bu vaziyatda oqlar yuta oladimi?




a) ha, yurish oqlardan bo'lsa

b) yo'q

c) yurish qoralardan bo'lsa

d) bu vaziyat durangga olib boradi

198. Bu vaziyatda natija qanday bo'ladi?




a) Durang

b) Oqlar yutadi

c) Qoralar yutadi

d) Pot

199. Bu vaziyatda natija qanday bo'ladi?



a) Qoralar to'g'ri o'ynasa durang

b) Oqlar yutadi

c) Qoralar yutadi

d) Natija pot bo'ladi

200. Qaysi grossmeyster "Hech kim mittelshipelning qachon boshlanib, qachon tugashini aniq aytib bera olmaydi" degan?

a) A. Alyoxin

b) V. Anand

c) G. Kasparov

d) R. Qosimjonov

Фойдаланилган адабиётлар рo'йҳати

1. И.Л. Майзелис, М.М. Юдович «Шахмат ўйини дарслиги», Т., 1955;
2. Ж. Полгар, П. Труонг, Л. Горвиц «24 соатда шахмат ўрганиш», Т., 2015;
3. М. Муҳиддинов «Шахмат» Т., 1992;
4. Дж. Айдинау «Бобби Фишер идёт на войну», М., 2008;
5. М. Дворецкий, О. Перваков «Этюды для пратиков», М., 2009;
6. М. Дворецкий, А. Юсупов «Секреты дебютной подготовки», Харьков, 2009;
7. М. Дворецкий, А. Юсупов «Техника в шахматной игре», Харьков, 2009;
8. А. Карпов «Школьный шахматный учебник. Начальный курс дебютов» М., 2009;
9. А. Карпов, А. Шингирей «Школьный шахматный учебник. Начальный курс»;
10. А. Карпов, Я. Калиниченко «Методы шахматной стратегии» М., 2009;
11. Г. Каспаров «Мои великие предшественники» тома 1–5, М.;
12. Г. Каспаров «Великое противостояние. Мои поединки с 13. Анатолием Карповым», тт. 1–2, М., 2008–2009;
14. А. Костенюк, Я. Костенюк «Как научить шахматам» М., 2009;
15. Т. Степовая «Тигренок в шахматном королевстве» М., 2008;
16. А. Халифман «Дебют белыми по Ананду 1.e4» тома I–II, СПб.;
17. В. Костров, Я. Рожков «1000 шахматных задач. Решебник», 1, 2, 3 год, М., 2009;
18. В. Костров, Д. Давлетов «Школьный шахматный учебник», 1,2 части, рабочая тетрадь, М., 2009;
19. «Международный шахматный турнир Гронинген-1946», М., 2008;
20. Э. Ласкер «Все партии» т. 1 (1899–1903), т. 2 (1904–1940), М., 2009;
21. В. Смыслов «Наука побеждать», М., 2008;
22. Шахматы. Полный курс. Авт. — сост. Н. Калиниченко, В. Линдер, М., 2008;
23. А. Карпов «Учитесь играть защиту Каро-Канн», (2-е изд.) М., 2008;
24. А. Карпов, А. Мацукевич «Оценка позиции и план», (3-е изд.) М., 2009;
25. А. Нимцович «Моя система», М., 2003;
26. «Два турнирных триумфа Алехина. Сан-Ремо 1930, Блед 1931» М., 2004.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| 1. Kirish..... | 4 |
| 2. Shaxmat o'yinining paydo bo'lishi va jahonda rivojlanishi..... | 6 |
| 3. O'zbekistonda shaxmatning rivojlanishi..... | 9 |
| 4. Shaxmat taxtasi va alifbosi..... | 13 |
| 5. Donalarning yurishi..... | 16 |
| 6. Yurishlarni yozish..... | 20 |
| 7. Rakirovka..... | 22 |
| 8. O'yin qoidalari..... | 24 |
| 9. Kisht va mot..... | 25 |
| 10. Durang. Doimiy kisht. Pat..... | 27 |
| 11. Donalarning solishtirma kuchi..... | 29 |
| 12. Xujum qilish va himoyalalanish..... | 33 |
| 13. Qisqa o'yinlar..... | 37 |
| 14. Eng oddiy o'yin ohirlari..... | 48 |
| 15. Durang holatlari..... | 54 |
| 16. Strategiya va taktika asoslari..... | 57 |
| 17. Ayrim donalarning harakatchanligini cheklash..... | 60 |
| 18. Kombinatsiya..... | 71 |
| 19. Debyutdagi vazifalar | 79 |
| 20. Asosiy debyut variantlari..... | 82 |
| 21. Ochiq debyutlar..... | 83 |
| 22. Yarim ochiq debyutlar..... | 97 |
| 23. Yopiq debyutlar..... | 102 |
| 24. Piyodali endshpillar..... | 108 |
| 25. Tomonlarda bittadan piyoda qolganda..... | 110 |
| 26. Shoh bilan ikki piyoda shohga qarshi..... | 113 |
| 27. Shoh bilan ikki piyoda shoh bilan bir piyodaga qarshi..... | 115 |
| 28. Tomonlarda ikkitadan va undan ortiq piyoda qolganda..... | 118 |
| 29. Farzinning piyodaga qarshi kurashi..... | 121 |
| 30. Ruhning piyodaga qarshi kurashi..... | 124 |
| 31. Fil yoki otning piyodaga qarshi kurashi..... | 126 |
| 32. Otli endshpillar..... | 129 |
| 33. Filli enshpillar..... | 132 |
| 34. Ruxli endshpillar..... | 140 |
| 35. Farzinli enshpillar..... | 146 |

| | |
|---|-----|
| 36. Shaxmat bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish..... | 150 |
| 37. Yosh shaxmatchilarni tayyorlash metodikasi..... | 152 |
| 38. Shaxmatga dastlabki o'rgatishning 1 yillik dasturi..... | 154 |
| 39. Glossariy..... | 158 |
| 40. Shaxmatdan test savollari..... | 167 |
| 41. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati..... | 190 |